جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 28-iyun
№ 27(27)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IKKINCHI XALQARO MAQOM SAN’ATI ANJUMANINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Qadrli vatandoshlar!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz, azizlarni betakror qadriyat va an’analar yurti bo‘lgan O‘zbekiston zaminida ikkinchi marotaba o‘tkazilayotgan Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilishi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Bugungi tantanamizda YUNESKO Bosh konferensiyasi 42-sessiyasi prezidenti Simona Mikulesku, AYSESKO Bosh direktori Salim Muhammad al-Malik, TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiy madaniyat va meros fondi prezidenti Aktoti Raimkulova, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasi Bosh kotibi Mehmet Sureyya Er, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Bosh kotibi o‘rinbosari Nurlan Seytimov, Turkiya Respublikasi Prezidentining bosh maslahatchisi Yalchin Topchu, Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Malik Otarbayev, Tojikiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy rivojlanish, madaniyat va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha yordamchisi Abdullo Rahmonzoda, Qirg‘iz Respublikasi madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vaziri Oltinbek Maksutov, Ozarbayjon madaniyat vaziri Adil Gabil o‘g‘li Karimli va boshqa muhtaram mehmonlarimiz ishtirok etayotgani uchun alohida minnatdorlik bildiraman.

Xush kelibsiz O‘zbekiston zaminiga!

Qadrli mehmonlar!

Mazkur anjuman 2018-yilda ko‘hna Shahrisabzda o‘tkazilgan birinchi xalqaro maqom san’ati festivalining davomi bo‘lib, pandemiya tufayli vujudga kelgan olti yillik tanaffusdan so‘ng barchamizni yangicha ruh va shukuh bilan yana o‘ziga chorlamoqda.

Buyuk ipak yo‘li durdonasi – jannatmakon mamlakatimizning gavhari, serviqor tog‘lar, yamyashil o‘rmonlar, xalqparvar va olijanob insonlar yurti bo‘lmish betakror Zomin bugun katta san’at bayramiga mezbonlik qilmoqda.

Qadimiy Zomin haqida ko‘plab kitoblar, ilmiy tadqiqotlarda batafsil ma’lumotlar berilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, “Zomin” atamasi “Avesto”da tilga olingan “Zomyod”, ya’ni, farovonlik farishtasi degan nom bilan bog‘liq va miloddan avvalgi VII-V asrlarga borib taqaladi.

Noyob arxeologik topilmalari, zabardast allomalari bilan jahonga mashhur ushbu hudud ko‘p asrlar davomida sivilizatsiya beshiklaridan biri, ilm-fan, san’at va ma’rifat markazi bo‘lib kelgan. Jumladan, XII asrning oxiri va XIII asrning birinchi yarmida bu makonda yashab ijod etgan huquqshunos alloma Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniy tarixda bolalar huquqlari bo‘yicha birinchi keng qamrovli manba – “Bolalar huquqlari kodeksi” (“Jomi’ ahkom as-sig‘or”) nomli noyob asar yaratganini katta faxr va iftixor bilan tilga olamiz.



Boshqacha qilib aytganda, ushbu tarixiy asar bola huquqlari G‘arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil muqaddam bugungi O‘zbekiston zaminida to‘liq o‘rganilib, amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

Bu ko‘hna diyor nafaqat beqiyos tabiat mo‘jizalarini, shu bilan birga, buyuk ma’naviy xazina bo‘lgan xalqimizning boy an’ana va qadriyatlari, madaniy merosi va folklor namunalarini ham saqlab kelayotgan tabarruk zamindir.

Shu o‘rinda Jizzax viloyatidan O‘zbekiston xalq hofizlari Eson Lutfullayev va Orifxon Hotamov, O‘zbekiston san’at arbobi Bahrullo Lutfullayev kabi hayotbaxsh va o‘lmas navolari bilan xalqimiz mehrini qozongan atoqli hofizlar, mohir bastakorlar yetishib chiqqanini yodga olishni istar edim.

Muhtaram festival qatnashchilari!

Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo‘lgan maqom san’ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin egallaydi. Maqom – umumbashariy tuyg‘ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san’at turi sifatida ham biz uchun g‘oyat qadrlidir.

Shu bilan birga, u o‘zida musiqa, she’riyat va raqs san’atini ajoyib tarzda uyg‘un etgan yuksak tafakkur va insoniy kamolot qomusidir. Maqom san’ati uchun asosiy mavzu – eng avvalo, shaxs, uning erki va qadri, tinchlik-totuvlik, hamjihatlik va umumbashariy taraqqiyot hisoblanadi.

Bu mumtoz badiiy obida asrlar mobaynida avlodlar o‘rtasida ruhiy uzviylikni saqlab, inson ma’naviy olamini boyitib, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashdek ulug‘ maqsadlarga xizmat qilib kelmoqda.

Maqom o‘zida xalqning teran ruhiyati, ezgu niyatlari, milliy mentaliteti, so‘nmas qadriyatlarini mujassam etgan bo‘lib, sivilizatsiya taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Musulmon Sharqida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida maqom san’ati jadal rivojlanib, o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Xususan, X asrning birinchi yarmida Sharqda “Muallimi soniy” nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Nasr Forobiy o‘zining “Katta musiqa kitobi”da musiqa san’atining nazariy va amaliy mezonlarini ud sozi orqali mukammal tartibga keltirgan. Buyuk mutafakkir Muhammad Xorazmiy “Ilmlar kaliti” kitobining musiqaga bag‘ishlangan qismida o‘sha davrdagi musiqa cholg‘ulari haqida aniq ma’lumotlar beradi. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalarimiz esa noyob musiqiy asarlar yaratib, maqom rivojiga beqiyos hissa qo‘shganlar.

XX asrda bu an’analarni munosib davom ettirgan Abdurauf Fitrat, Viktor Uspenskiy, Yunus Rajabiy kabi salohiyatli va peshqadam san’atshunos olimlar, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Turg‘un Alimatov, Berta Davidova, Fattohxon Mamadaliyev, Orif Alimaxsumov, Mahmudjon Tojiboyev singari atoqli va fidoyi ustozlarning unutilmas xizmatlarini hamisha cheksiz hurmat va ehtirom bilan esga olamiz.

Majoziy ma’noda olti azim o‘zanga qiyoslanadigan, xalqimiz badiiy tafakkurining beqiyos mahsuli bo‘lgan “Shashmaqom” asrlar davomida jahon madaniyat ummonini to‘ldirib, uni har tomonlama boyitib kelmoqda.

Shu o‘rinda mumtoz musiqa san’atining gultoji bo‘lgan betakror maqomlarimiz YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani va bu uni butun dunyoda keng targ‘ib qilish va ommalashtirishga munosib hissa qo‘shayotganini ulkan xursandchilik bilan ta’kidlamoqchiman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

O‘zbekistonda maqom san’atini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazishda mashhur davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning o‘rni alohida ajralib turadi. G‘oyat og‘ir davrlarda Sharof Rashidovichning sa’y-harakatlari bilan Toshkent davlat konservatoriyasida maqom san’atini ilmiy o‘rganishga, uni xalqaro miqyosda targ‘ib etishga asos solingan edi. O‘sha yillarda respublikamizda maqom ansambli tashkil etilgan. O‘lmas “Shashmaqom” durdonalari notaga olinib, 6 jilddan iborat mukammal kitob nashr qilingan.

O‘ylaymanki, bugungi fayzli anjumanimiz tufayli rahmatli Sharof Rashidovichning ham ruhlari shod bo‘lmoqda.

Xabaringiz bor, Yangi O‘zbekistonda barcha sohalar qatori madaniyat va san’at yo‘nalishini rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Bu jarayonda “Sharq taronalari”, Xalqaro baxshichilik san’ati, “Lazgi”, Xalq hunarmandchiligi festivali singari nufuzli anjumanlar, Toshkent xalqaro kinofestivali, madaniyat kunlari, tasviriy va amaliy san’at ko‘rgazmalari hamda boshqa muhim tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hech shubhasiz, ular orasida mumtoz musiqa san’atining noyob durdonasi bo‘lgan maqomlarga bag‘ishlangan mazkur xalqaro festival beqiyos o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ushbu san’at ravnaqini yangi bosqichga olib chiqish, iste’dodli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Bugungi kunda maqom san’ati butun mamlakatimiz bo‘ylab, boshlang‘ich ta’limdan tortib, akademik fan darajasigacha bo‘lgan bosqichlarda uzluksiz tarzda o‘rganilmoqda. Biz Toshkent shahrida Maqom markazi yangi binosini qurish bo‘yicha amaliy ishlarni boshladik.

(Davomi 2-sahifada).

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do‘stlar!

Avvalambor, o‘z iste’dodi va mahorati, fidokorona mehnati bilan el-yurtimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan siz, milliy jurnalistikamiz jonkuyarlarini, soha rivojiga munosib hissa qo‘shgan muhtaram faxriylarimizni 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etib, barchangizga yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ma’lumki, axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta’minlash bo‘yicha muhim qoida va tamoyillar mustahkamlab qo‘yilgani, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashtirib borilayotgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda so‘z erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga erishish yo‘lida keng imkoniyatlar ochilayotgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, o‘rni va nufuzini yanada kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralikni rivojlantirish, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, fuqarolarimizning qonuniy murojaatlarini o‘rganish va hal qilish borasida sizlarning o‘rningiz va ta’siringiz tobora ortib borayotganini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Shu o‘rinda gazeta va jurnallarimiz, tele va radio kanallar, ijtimoiy tarmoqlarda turli mavzulardagi dolzarb chiqishlar, muammoli masalalar yuzasidan mutaxassis va ekspertlar ishtirokidagi ko‘rsatuv va eshittirishlar, tahliliy sharhlar, bahs-munozaralar sezilarli ravishda ko‘payganini ta’kidlash lozim.

Xususan, qurilish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashdagi kamchiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi muammolar bo‘yicha berib borilayotgan tanqidiy va tahliliy materiallar joylarda mudrab o‘tirgan ayrim rahbar va mutasaddilarni uyqudan uyg‘otib, yangicha ishlab, odamlarning tashvishi bilan yashashga majbur qilmoqda.

Muxtasar aytganda, kuyunchak va olijanob jurnalistlarimiz, faol blogerlarimiz o‘zlarining qat’iy pozitsiyasi, haqqoniy so‘zi bilan hayotimizdagi o‘tkir muammolarni hal etish, islohotlarimizning samarasini oshirish, yurtdoshlarimizning fikrini, dunyoqarashini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shmoqdalar.

Hech shubhasiz, bularning barchasi milliy media vositalarimiz “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga yaqinlashib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday yuksak marraga yetish oson emasligi, bu yo‘lda to‘siq va qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiydir.

Lekin, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu boradagi ishlarimizni qat’iyat bilan davom ettiramiz.

Muhtaram do‘stlar!

Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to‘rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Bu esa mazkur yo‘nalishda aynan sizlardek jasur va dovyurak, Vatanni chin dildan sevadigan, o‘z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko‘proq bo‘lishini taqozo etmoqda.

Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, ko‘p qirrali professional bilim va malakaga, yuksak ma’naviy-intellektual fazilatlarga ega bo‘lgan zamonaviy jurnalist kadrlar tayyorlash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Shu bilan birga, axborot maydonini sifatli va raqobatdosh milliy kontent bilan to‘ldirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib borayotgani barchamiz uchun ayon haqiqatdir.

Shu bois, dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni milliy manfaatlarimizni hisobga olgan holda, tezkor va chuqur tahlillar asosida yoritib borish o‘ta muhim, deb o‘ylayman.

Shuningdek, bugungi kunda yolg‘on va asossiz ma’lumotlarni tarqatish orqali odamlarni aldash, to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itish holatlari ko‘payib borayotgani aholining media savodxonligini oshirishni oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa qilib qo‘ymoqda. Axborot maydonida yuzaga kelayotgan bahsli tortishuv va muammolar faqat va faqat qonun doirasida, huquqiy me’yorlar negizida hal etilishi shart.

Siz, hurmatli media tarmoqlari vakillari ana shunday masalalarni hal etishda faol ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Albatta, sohada xizmat qilayotgan barcha yurtdoshlarimizning qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirish masalalari bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarni qutlug‘ kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, sharafli faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayz-u baraka tilayman.

Fursatdan foydalanib, bugungi bayram munosabati bilan yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ommaviy axborot vositalari xodimlarini chin dildan qutlayman.

Izlanish va ilhom zavqi, yangi ijodiy yutuqlar sizlarga hamisha yor bo‘lsin, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IKKINCHI XALQARO MAQOM SAN’ATI ANJUMANINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Maqom rivoji yo‘lida sermahsul ijod qilib kelayotgan bastakor, kompozitor, musiqashunos, xonanda va sozandalarni faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida yurtimizda nufuzli milliy tanlovlar o‘tkazib kelinmoqda.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, hayotini ana shunday sharafli va mas’uliyatli ishga bag‘ishlagan, go‘zal qalb olamida bu umumbashariy meros namunalarini avaylab-ardoqlab kelayotgan, o‘zining benazir va jozibador ohanglari bilan xalqlarimizni maftun va mamnun etayotgan sizlar kabi barcha aziz san’atkorlarimizga shaxsan o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Qadrli do‘stlar!

Biz bu borada boshlagan va baland marralarni ko‘zlagan reja va tadbirlarimizni, albatta, izchil davom ettiramiz. Zero, milliy maqom ijrochiligi mumtoz san’atimiz va yuksak madaniyatimizning o‘q ildizi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, **“Ko‘ngil quvvati – xush navozdin, ruh quti – xush ovozdin”.**

Qarang, qanday chuqur ma’noli so‘zlar.

Darhaqiqat, barcha olis va yaqindan kelgan san’atkorlar ishtirokida do‘st va birodar xalqlarimizning dillarini bir-biriga chambarchas bog‘laydigan bugungi anjumanimiz ham musiqa orqali yer yuzidagi barcha insonlarga ma’naviy oziq berishga xizmat qiladi. Festivalimiz ko‘lami tobora kengayib, bugun bu muhtasham majmuada Osiyo, Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika qit’alarining 80 dan ortiq mamlakatlaridan qariyb 400 nafar mehmonlar jam bo‘lib turgani ham fikrimizning yaqqol tasdig‘idir.

Ezgulik va gumanizm bayrog‘i ostida birlashgan, san’atni butun borlig‘i bilan sevadigan barcha ijod ahli uchun ushbu festival, hech shubhasiz, katta bayramdir.

Fursatdan foydalanib, tadbirni tashkil etishda bevosita ishtirok etayotgan barcha fidoyi insonlarga, bizning quvonchimizga sherik bo‘layotgan xorijiy davlatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillariga, hurmatli mehmonlarimizga chin dildan tashakkur aytaman.

Maqomlar jahon musiqa ixlosmandlari ruhining tuganmas kuch-quvvat va ilhom manbayi bo‘lsin!

Maqom san’atining shoni va shuhrati boqiy bo‘lsin!

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, olijanob faoliyatingizda yangi omadlar yor bo‘lsin!

E’tiboringiz uchun rahmat.

SARHAD BILMAS DO‘STLIK

O‘RXUN BO‘YLARIDAGI XAZINA

Mashhur yapon olimi Eyji Mano o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo tarixini Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarlari tadqiqi asosida yaratish mumkinligini “Bobur va uning davri” fundamental monografiyasi bilan isbotladi.

“Chig‘atoy va mo‘g‘ullar tarixini tadqiq qilish uchun biz foydalangan asosiy tarixiy manbalar – Boburning “Boburnoma”si hamda Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy” asaridir... – deb yozadi u, – Markaziy Osiyo Bobur hayotligida mo‘g‘ul, chig‘atoy, o‘zbek, qozoq hamda uyratlardan tashkil topgan oltoy xalqlariga mansub bo‘lgan kishilarning faoliyatlariga guvoh bo‘lgan... Bobur yashagan XV va XVI asrlarda chig‘atoy va mo‘g‘ullar Markaziy Osiyo tarixida temuriylar saltanati, mo‘g‘ullar saltanati, shuningdek, mo‘g‘ul xonligi kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan buyuk davlatlarning hukmdorlari sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lishgan”.



Ha, boy va murakkab tariximizda mo‘g‘ul qardoshlarimizning o‘ziga xos o‘rni borligi ham ilmiy, ham badiiy asarlarda o‘z tasdig‘ini topganini yaxshi bilamiz. Mo‘g‘uliston bilan O‘zbekiston davlatlari o‘rtasida tobora mustahkamlanib borayotgan ko‘p qirrali munosabatlarning teran tarixiy ildizlari bor...

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston amalga oshirayotgan do‘stona va tinchliksevar tashqi aloqalar qamrovi tobora kengayib borayotganiga butun dunyo afkor ommasi guvoh bo‘lib turibdi. So‘nggi yetti yilda qo‘shni va qardosh xalqlar bilan yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgani o‘z samarasini berayotgan bir davrda hamkorlikning ufqlari Sharq tomonga qarab kengayib borayotgani mamlakatimizda siyosiy islohotlarning izchilligi, davomiyligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida yo‘lga qo‘yilayotgan diplomatik aloqalar ham mamlakatimizda olib borilayotgan tashqi siyosatning yuksalishi sari tashlangan yana bir qadam bo‘ldi. Inchunin, bu hamkorliklar natijasida kelajakda hali ko‘p xayrli ishlar amalga oshiriladi.

MO‘G‘ULISTON TA’RIFI

Mo‘g‘uliston – Osiyoning shimoli-sharqiy qismida joylashgan mamlakat. Atigi uch yarim million aholisi bor. Bir qarashda Mo‘g‘uliston O‘zbekistonning imkoniyatlari va maqsadlaridan chetroqda turgan mamlakat o‘laroq ko‘zga tashlanadi. Ammo tarix bizga boshqacha ma’lumotlarni taqdim qiladi.

Mo‘g‘uliston joylashgan hudud Oltoy tog‘larining janubi-sharqiy qismi bo‘lib, bu joylar moziyda oltoy xalqlari, jumladan turkiy xalqlarning shakllanishida muhim o‘rin tutgan sivilizatsiyalar beshigi sanaladi. Moziyga nazar tashlaydigan bo‘lsak, miloddan avvalgi IV asrda vujudga kelgan Xun davlati davridayoq Markaziy va Sharqiy Osiyo o‘rtasida savdo va madaniy aloqalar yuksak darajada bo‘lganini ko‘rish mumkin. Keyinchalik Buyuk Ipak yo‘li orqali savdo madaniy aloqalar rivojlangan. Turk xoqonligi davrida esa bu hududlar yagona davlat hukmronligi ostida birlashgan. O‘sha paytlardan boshlab Oltoy, Soyon, Sibir va Markaziy Osiyoning o‘troq va ko‘chmanchi aholisi ishtirokida mushtarak madaniyat shakllana boshlagan. Aynan shu hududlarda, aniqrog‘i O‘rxun daryosining qirg‘oqlarida turkiylar tarixi bilan bog‘liq juda ko‘plab yodgorliklar saqlangan. Ular orasida To‘nyuquq, Bilga xoqon va Qultegin toshbitiklari, Qoraqo‘rim va Qarabalg‘asun (Ordu baliq) shahar xarobalari butun dunyoga mashhurdir.

O‘tgan yili 12–19-oktyabr kunlari Urganch davlat universiteti va Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyati bo‘limi tashabbusi bilan tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Bekzod Abdirimov rahbarligida amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiya tarkibida Mo‘g‘ulistonda bo‘ldik. Ekspeditsiya maqsadi Mo‘g‘ulistonda joylashgan turkiy toshbitiklar va boshqa tarixiy yodgorliklarni, Chingizxon bosqinidan keyin yurtimizdan olib ketilgan asirlar taqdirini, ular bilan bog‘liq manbalarni aniqlash, o‘rganish va tadqiq qilishga qaratilgan edi. Avvaliga bizning ko‘nglimizda biroz hadik bor edi. Chunki o‘sha paytdagi tasavvurimizda dini va madaniyati mutlaq farq qiladigan xalq orasiga kirib borish, buning ustiga tadqiqot o‘tkazish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydigandek tuyulardi. Ammo bobolarimiz qoldirgan merosni ko‘rishga, yangiliklarni kashf etishga bo‘lgan ishtiyoq g‘olib kelib, Mo‘g‘uliston sari yo‘l soldik. Buni qarangki, biz mingan uchoq Ulan-Batorga qo‘nganda Mo‘g‘uliston Milliy universiteti vakillari bilan o‘zaro muloqot chog‘ida oldingi tumanli tasavvurlarimizdan zarra ham qolmadi.

Mo‘g‘uliston Milliy universiteti qoshidagi Turkologik tadqiqotlar instituti direktori Anxbayar Danu bizga o‘z mamlakati haqida so‘zlab berar ekan, shu yurtning kengliklari qadar bag‘rikeng, sodda va taraqqiyot sari intiluvchan bir xalq ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘la boshladi. Turkologik tadqiqotlar institutida izlanish olib borayotgan turkiyalik olimlar, shuningdek, qozoq mutaxassislari va talabalari bilan hamkorlik qilar ekanmiz, ulardan Mo‘g‘uliston xalqining tolerantligi haqida eshitib, ancha xursand bo‘ldik.

Biz to‘rt kun davomida To‘nyuquq, Bilga xoqon va Kultegin toshbitiklarini ziyorat qildik. Qoraqo‘rim shahrida bo‘lib, Xorazmdan asir qilib olib ketilgan vatandoshlarimiz taqdiri bilan qiziqdik. Keyin Mo‘g‘uliston Milliy universitetining kutubxonasida manbalar bilan tanishdik.

Mo‘g‘ullar Xorazmshohlar davlatini “Sartuul ulusi”, turli sabablar bilan Mo‘g‘ulistonga kelib o‘rnashib qolgan turkiylarni va ularning avlodlarini “sartuul” deb atashar ekan. Bizni izlab ko‘plab sartuullar kelishdi. Ular bilan “sart” so‘zining ma’nosi haqida suhbatlar qildik. Aytishlaricha, ular hamon o‘zlarining asli O‘rta Osiyolik ekanini bilishar va faxrlanishar ekan.

18-oktyabr kuni Mo‘g‘uliston milliy universitetida “Mo‘g‘ul va Xorazm davlati o‘rtasidagi aloqalar tarixi” mavzusida birinchi ilmiy anjuman tashkil etildi. Ikki mamlakat olimlari samarali ishlab, o‘zaro fikr almashdik, ilmiy hamkorlikning keyingi bosqichlari bo‘yicha o‘zaro kelishib oldik.

O‘ylab ko‘rsak, ikki mamlakat olimlari orasida hamkorlikda amalga oshirish zarur bo‘lgan ilmiy tadqiqlar juda ko‘p ekan. Birinchidan, turkiy va mo‘g‘ul tillari oltoy tillar oilasiga mansub. Bundan tashqari, ushbu til oilasi tarkibiga tungus-manjur, koreys va yapon tillari ham kiradi. Taksonomik (taksonomiya – tilshunoslikda lingvistik obyektlar – shevalar, tillar, dialektlar va til guruhlarini tasniflash va tizimlashtirish tamoyillari va amaliyoti haqidagi fan) jihatdan olib qaralsa, bu tillar orasida eng yaqini turkiy va mo‘g‘ul tillari hisoblanadi. Chunki ming yillar davomida turkiy va mo‘g‘ul qabilalari baqamti yashab, mushtarak madaniy muhit yaratishgan. Shu sabab ularda etnik xususiyatlar, folklor, tildagi leksik o‘xshashliklar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Koreys va yapon xalqlari esa keyingi ming yil davomida Osiyoning eng sharqiy qismida o‘rnashib, o‘zga bir madaniyat yaratishgan.

Oltoyshunoslikni ilmiy jihatdan o‘rganish bugungi kun jahon tilshunosligida dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ammo o‘zbek tilshunosligi bu borada ancha oqsamoqda. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, mening Mo‘g‘ulistonda tadqiqot olib borayotgan turk qardoshlarimizga havasim keldi. TIKA tashkiloti shu paytgacha ancha eskirib korroziyaga uchragan Bilga xoqon va Kultegin toshbitiklari uchun yopiq muzey barpo qilib, hududini obodonlashtirgan, To‘nyuquq toshbitigi uchun esa muhtasham muzey binosini qurayotgan ekan. Shu yerda, turkiyalik tadqiqotchi Samad Kalyonchi uyg‘ur yozuvining mo‘g‘ul va manjur variantlarini tadqiq qilayotganiga guvoh bo‘ldim. U tadqiqot olib borish uchun mo‘g‘ul tilini o‘rgangan va har zamonda manjurlar bilan ishlash uchun Ichki Mongoliyaga (Xitoyga) o‘tib kelarkan.

Turkiyalik olimlar O‘rxun bitiklari haqida 21 jildlik kitob chiqarishgan. Sotib olmoqchi edik, bu yerda faqat bir nusxa borligini aytishdi. Kitoblar Turkiyada nashr etilgan, o‘sha yoqdan topsa bo‘ladi, deyishdi. O‘rxun yodgorliklari, oltoy xalqlari tili va etnologiyasi bo‘yicha Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston olimlari ish olib borayotganini eshitdik. Ammo ularning orasida, taassufki, o‘zbek tadqiqotchilari yo‘q...

MO‘G‘UL XARAKTERI

Men muloqot jarayonida mo‘g‘ullarning xarakteri va tili bilan ko‘proq qiziqdim va ularning yerga qarab gapirishi, so‘zingizni jim turib eshitishi va keyin odob bilan gapirishini yaponlarga o‘xshatdim. Bir qozoq yigiti bizga yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘ldi. Men undan, “bu yurtda sizlarga musulmon yoki kichik millat sifatida tazyiq yoki kamsitishlar yo‘qmi?” deb so‘radim. “Bular yaxshi xalq”, deb javob berdi qozoq yigiti, “sen ham yaxshi odam bo‘lsang bo‘ldi, dining bilan ishi yo‘q”.

TIL XUSUSIYATLARI

Men dissertatsiyamni yozish jarayonida ko‘plab umumoltoy plastidagi so‘zlar etimologiyasi bo‘yicha tahlillarimni “Rus-mo‘g‘ul lug‘ati”dan foydalanib bajargan edim. Mo‘g‘ulistonda ekanimda, ularni til egalari bilan bevosita tahlil qilish imkoni paydo bo‘ldi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, oltoy tillarini “Rus-mo‘g‘ul lug‘ati”ga tayanib o‘rganish juda jiddiy xatolarga sabab bo‘lar ekan. Chunki mo‘g‘ul tili umumoltoy plastidagi juda ko‘plab so‘zlarni saqlab qolgan bo‘lib, bu so‘zlar mo‘g‘ul tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganilsagina mazmuni o‘zgarmaydi.

Mo‘g‘ul tili turkiy tillarga eng yaqin tildir. Misol uchun, turkiy “q” tovushi mo‘g‘ulchada qattiq “x” shaklida talaffuz qilinadi. Agar shu farqni yodda tutgan holda so‘zlashsak, bu tillarning negizi bir ekanini anglab yetish mumkin bo‘ladi va o‘nlab so‘zlarni tarjima qilish kerak bo‘lmaydi:

Qora – xar
Qoraqo‘rim – Xorxorin
Qo‘ng‘irot – xonxirat
Quda – xodo, qudag‘ay – xodog‘iy.

HAMKORLIK UFQLARI

Mo‘g‘uliston va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi har ikki mamlakat uchun foydali ekani shubhasiz. Iqtisodiy jihatdan olib qaralsa, Mo‘g‘uliston keskin o‘zgaruvchan iqlim sharoitida bo‘lgani uchun bu yerlarda meva, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirish juda qiyin. Ammo go‘sht, sut, jun mahsulotlari tayyorlash va eksportida ancha oldinda. Buni tasavvur qilish uchun Mo‘g‘uliston aholisi uch yarim million, chorva mollarining soni esa 80 mln bosh ekaniga e’tibor qaratishning o‘zi kifoya qiladi. Ammo Mo‘g‘uliston deganda ko‘z oldiga chorvachilik keladiganlar adashadi. Chunki mamlakatning asosiy daromadi tog‘-kon sanoatidan keladi. Urbanizatsiya darajasi juda yuqori va bugungi kunda aholining 65 foizi shaharlarda yashaydi.

Mo‘g‘uliston va O‘zbekiston ilmiy aloqalar masalasiga kelsak, hozircha ko‘p ish bajarilgani yo‘q. Buning asosiy sababi, albatta, diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilmagani bilan bog‘liq edi.

Shunday bo‘lsa-da, bir nechta oliy o‘quv yurtlarimiz, xususan, Urganch davlat universiteti va Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Mo‘g‘uliston Milliy universiteti bilan hamkorlik shartnomalarini imzolagan.

Biz Mo‘g‘uliston safaridan qaytganimizdan so‘ng, tarix fanlari doktori, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Xorazm viloyati bo‘limi boshlig‘i Bekzod Abdirimov “Chingizxon bosqini va yurtidan ayrilganlar taqdiri” nomli kitobini chop ettirdi. Urganch universiteti tadqiqotchisi Mardon Hasanov “Mo‘g‘uliston hayratlari: Urganchdan Ulan-Batorgacha” nomli sayohatnoma yozdi.

Joriy yilning 4–6-iyun kunlari Urganch davlat universitetida “Tarix va filologiya sohalarida o‘zbek-mo‘g‘ul ilmiy aloqalari” mavzusidagi xalqaro simpozium tashkil etildi. Unda mo‘g‘ulistonlik olimlar ishtirokida konferensiya, aylana stol va boshqa ilmiy-amaliy tadbirlar doirasida muhokamalar olib borildi.

Ammo hali oldinda qilinadigan ishlar ko‘p. Muammolar ham talaygina...

Birinchidan, Mo‘g‘ulistondagi arxeologik yodgorliklar o‘zbek olimlari tomonidan mutlaqo o‘rganilmagan. Vaholanki, O‘rxun madaniy landshaftidagi asosiy arxeologik yodgorliklar umumturkiy meros sanaladi.

Ikkinchidan, oltoy tillarini o‘rganishga e’tibor bo‘lmagani uchun mo‘g‘ul tili qiyosiy o‘rganilmagan. Lug‘atlar, so‘zlashgichlar yo‘q.

Uchinchidan, ikki xalq o‘rtasida etnik o‘xshashliklar juda ko‘p bo‘lsa-da, etnologik tadqiqotlar olib borilmagan.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi ko‘plab muammolarning hal etilishini osonlashtirishi tabiiy. Ulan-Bator va Toshkent o‘rtasida uchoq qatnovi yo‘lga qo‘yilsa, imkoniyatlar yanada kengayadi.

O‘ylaymanki, yaqin kunlarda ikki mamlakat olimlari o‘rtasida hamkorlik yanada jonlanadi. Bu, albatta, filologlarimiz uchun yangi ilm ufqlariga yo‘l ochadi. Eng asosiysi, o‘zbek olimlarining qardosh davlatlarning turkologiya sohasida olib borayotgan strategik tadqiqotlariga yanada salmoqli hissa qo‘shishiga, hamkorlikning tag‘inda kengayishiga cho‘ng imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Anvar BO‘RONOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

27-IYUN – MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

Mahorat, jasorat va fidoyilik maydoni



O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, taniqli yozuvchi va olim Xurshid DO‘STMUHAMMAD bilan suhbat

– Xurshid aka, uzoq yillik ijodiy faoliyatingiz jurnalistika bilan chambarchas bog‘liq. Ayting-chi, jurnalist uchun eng muhimi nima? Hadmi, haqiqatmi? Buning qay biri soha faoliyati salohiyatini belgilashda ko‘proq hissa qo‘shadi, jurnalistlik kasbi nufuzini oshiradi? Umuman, jurnalist nimalarni puxta egallashi shart deb hisoblaysiz?

– Savolda “had”, “haqiqat” so‘zlari ma’no jihatidan bir-birini to‘ldirib kelyapti. Tabiiy, jurnalistika har qanday zamon va makonda haqiqat uchun kurashadi. Boshiga qanday kun tushsa, ana shu kurash yo‘lida tushadi, nima topsa yoki nima yo‘qotsa, haqiqatni aytish istagi, ehtiyoji tufayli topadi yoki yo‘qotadi.

Haqiqat bitta bo‘ladi, deyishadi. Nazariy va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri gap, biroq biz haqiqatning shakl-shamoyili, rang-ro‘yi, ma’no-mazmuni, jozibasi va hokazosi aralash-quralash bo‘lib ketgan zamonda yashayapmiz. Misol uchun, osmondan yog‘ayotgan qorning oqligini kim bilmaydi deysiz, biroq bu tabiiy hodisaning sariq yo qizilligini, u nafaqat qish mavsumida, balki faqat yoz chillasida yog‘ishini “isbotlovchi” shu qadar qudratli kuchlar borki, sog‘lom aql-idrok ham ip esholmay qoladi.

Dunyo mana shunday talotumni boshdan kechirmoqda. Shu sharoitda rost gapni haqiqat, haqiqatni rost gap sifatida ayta olish, deylik, qor oppoq bo‘lishini isbotlay bilish ko‘pchilik o‘ylaganidek juda-juda oson emas.

Zamonamiz jurnalisti mana shunday holatda yashayapti, ishlayapti, ijod qilyapti.

Nachora, shu kasbning boshini tutdingmi, hayoting mazmuni, izzat-obro‘ying, osh-noning shuning ortidanmi, marhamat, zimmangdagi yuk zalvorli – uni ko‘tarishga majbursan, xizmatga shaysan, aks holda barcha dabdaba-yu as’asalaring o‘zingni va sohani beobro‘, beburd qilishdan boshqaga yaramaydi.

Xalqimizda “Hadding sig‘adimi?” degan ibora bor. Ma’nosi ancha chuqur! Undan foydalanaylik-da, ustma-ust savollar keltirib chiqaraylik: jangovar jurnalistika sohasining tom ma’nodagi jangchisi, fidoyisi bo‘lishga hadding sig‘adimi? Jurnalist sifatida jamiyatning (demak, xalqning) koriga yaraydigan gapni baralla ayta olishga hadding sig‘adimi? Jurnalistika sohasining ijodiy mashaqqatlariga bardosh berishga hadding yetadimi? Har qanday haqiqatni rasamadi bilan keng xalq ommasi e’tiboriga yetkazish mahoratini o‘zlashtirganman, demoqlikka hadding sig‘adimi? Aytgan va tarqatgan haqiqating yo‘lida o‘zingni, huquqingni, sha’ningni himoya qilishga hadding yetarlimi?

Jurnalist egallashi shart bo‘lgan xususiyatlar mazkur savollar zamirida mujassam deb o‘ylayman.

– Jurnalistning asosiy vazifasi bo‘lmish axborot to‘plash va uni tarqatish ishini bugun blogerlar jurnalistlarga nisbatan tezroq uddalamoqda. Chetdan qaraganda, jurnalistlarning mavqeyi tushganday ko‘rinadi. Ammo aslida ayni teskarisi bo‘ldi, fikrimcha. Chunki blogerlik sohasining ommalashuvi jurnalistikaning zalvorini, uning jamiyatda o‘z o‘rniga ega soha ekanini qayta namoyon qildi. Shunday emasmi?

– To‘g‘ri, axborot to‘plash va uni tarqatish nihoyatda xayrli vazifa. Bu borada blogerlarga tasanno aytmog‘imiz kerak, albatta. Men jurnalistlik va blogerlik faoliyati orasini “xitoy devori” bilan ajratish tarafdori emasman. Faqat axborot to‘plash va tarqatish katta, zalvorli jurnalistikaning ibtidosi ekanligini yoddan chiqarmaylik. Ilgari ham jurnalistikaning ushbu bosqichini o‘zi uchun sharaf deb bilgan zabardast jurnalistlar bo‘lgan, ularning ayrimlari “axborot qiroli” degan e’tirofga sazovor ham bo‘lishgan. Faqat “bloger” degan so‘z, atama muomalada bo‘lmagan, xolos.

Ikkinchidan, chinakam jurnalist o‘zi to‘plagan va tarqatayotgan axboroti uchun mas’uliyatli ekanligini unutishga haqqi yo‘q. Salohiyatli, zalvorli, miqyosli professional jurnalistika mana shu o‘rinda boshlanadi. Bunday maqomni zabt etish esa eng epchil bloger do‘stimizga ham nasib etavermasligini unutib qo‘ymaylik.

– Xalq shoir, yozuvchi va rassomni taniydi. Lekin jurnalistlarni ko‘pam tanimaydi. Vaholanki, yozuvchi va shoirlar tuyg‘ularini qog‘ozga tushirsalar, jurnalistlar xalq hayotidan, turmushidan lavhalar yozadilar, munosabat bildiradilar. Nega shunday ekan-a?

– El-yurtning nazariga tushish borasida birorta kasb egasi jurnalistlarda bo‘lganidek cheksiz imkoniyatga ega emas. Chunki jurnalist kasbining maqsad-vazifasidan, missiyasidan kelib chiqib xalq odami, xalq vakili, xalq jonkuyari, xalq fidoyisi hisoblanadi. Nega u taniqli bo‘lmasligi kerak? Qanday qilib u tanilmay yuraverishi mumkin? Agar u boshqa ijod kishilariga qaraganda el-yurtning nazariga tushmagan bo‘lsa, bosh aybdor uning o‘zi!

– Dunyo jurnalistikasidan biz o‘rganishimiz kerak bo‘lgan jihatlar?

– “Dunyo jurnalistikasi”, “Jahon jurnalistikasi” nisbiy tushunchalar aslida. Konkret aytish lozim bo‘lsa, yuksak ijodiy mahorat, professionallik va fidoyilik borasida har qancha o‘rgansak shuncha oz!

– Jurnalistika bu – shoshilinch adabiyotdir. Shu ma’noda, har bir maqolada, hattoki, oddiy bir xabarning ham adabiy jihatini saqlash kerak. Shu haqda fikringiz?

– “Jurnalistika – shoshilinch adabiyot”, deb topib aytdingiz. Ehtimol, “Dolzarb adabiyot” desak ham xato bo‘lmas. Lekin “adabiy jihat” alohida mavzu, alohida muammo. Jurnalistika adabiyotning ukasi, inisi, chunki har ikkala sohaning o‘zagi, poydevori, umurtqasi, jilvasi, bezagi, ohanrabosi – so‘z! So‘z esa cheksiz ijodiy mahorat demakdir, muttasil izlanish demakdir. So‘zni, tilni ardoqlash borasida birinchi qatorda jurnalist turmog‘i ham qarz, ham farz. Afsus, bu borada milliy jurnalistikamiz maydonidagi muammolar o‘rkach-o‘rkach bo‘lib, tog‘-tog‘ bo‘lib “yuksalishda” jadal davom etmoqda desam, bu yumshoq kinoyani to‘g‘ri talqin qiluvchilar ko‘pchilik deb o‘ylayman.

– Bugungi kun jurnalistikasining yutuq va kamchiliklari nimalarda deb o‘ylaysiz?

– Milliy jurnalistikamiz zamon va davr o‘zgarishlari silsilasini boshdan kechirmoqda. Jamiyatda kechayotgan yangilanishlarga basma-bas yangilanishga harakat qilmoqda. Bu yangilanishlar kasbimizdagi yutuq darajasiga ko‘tarilishi uchun yana ancha ter to‘kishga to‘g‘ri keladi, kamchiliklar sifatida esa mezon o‘zgarmasdir: jurnalistika – ijodiy mahorat, jasorat va yuksak professional fidoyilik maydoni bo‘lib qolaveradi!

– Respublikamizda matbuotga berilayotgan e’tibordan qoniqasizmi? Umuman, bugungi o‘zbek jurnalistikasini kuzatib borasizmi?

– Biz gazeta jurnalistikasi, jurnal jurnalistikasi muhitida ulg‘aygan avlod vakillarimiz. Bu kayfiyatni hech qanday to‘siq, kamchilik izdan chiqarolmaydi. Va to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Ya’ni har qanday milliy jurnalistika mavqeyini GAZETA JURNALISTIKASI belgilab beradi. “Xalq so‘zi”, “Yangi O‘zbekiston”ni varaqlamagan kunimiz oz. “Jadid”, “Ma’rifat”, “Hurriyat”, “Ishonch” va ayrim siyosiy partiya nashrlari, shuningdek, “Tafakkur”, “Ma’naviy hayot”, “Vatan” hamda adabiy jurnallar (jumladan, bolalar nashrlari) zarur mavqeni saqlashga harakat qilmoqda. Telekanallarimiz asosan shakl, qiyofa izlanishi bilan ovora, radiojurnalistika ommaboplashish imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishini istardik. Ijtimoiy tarmoqlarda keyingi paytlarda yangilanishdan ko‘ra depsinish ko‘proq ko‘zga tashlanayotgandek.

Vaholanki, mamlakatda matbuotga har qachongidan e’tibor yuqori. Zamonaviy milliy matbuot vujudga kelganiga taxminan 150 yil vaqt o‘tgan bo‘lsa, hozirgidek emin-erkinlik kamdan kam kuzatilgan. Bugun kasb bayramimiz munosabati bilan hamkasblarga qarata aytadigan muhim tilagim bor – kasbimizning, shaxsimizning, so‘zimizning sha’ni, oriyati, nafsoniyati, g‘ururi, shukuhini ko‘tarishimiz zarurligini biron daqiqa, biron lahza bo‘lsin, unutmaylik! Mana shunday maqomlarga ko‘tarilgan soha va soha egalarigina yanada yuksak e’tiborga loyiq, munosib hisoblanadilar. Zero, sohaning va soha kishilarining mavqeyi, salohiyati, nufuzi, g‘ururi va nafsoniyati nechog‘li balandlasha borsa, unga ko‘rsatilayotgan e’tibor darajasi ham shunchalik salmoqli tus oladi. Tahririyatlarimiz orasida ijodiy mahorat borasida sog‘lom raqobat muhiti vujudga kelsa, shuningdek, nigohi, qalami o‘tkir peshqadam jurnalistlarimiz jamoasi ko‘zlarimizni yashnatib tursa, bu kabi e’tibor-u qo‘llab-quvvatlashlar uzukka ko‘z qo‘ygandek yanada yarashadi.

– 27-iyunning bayram qilinishi jadid bobolarimiz tomonidan chop etilgan “Taraqqiy” gazetasining birinchi soni nashr etilgan kun bilan bog‘liq. Nima deb o‘ylaysiz, biz o‘sha jadid bobolarimiz boshlagan ishni davom ettira olyapmizmi?


– Buni qarang, jadid bobolarimizning barcha sa’y-harakatlari matbuot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. O‘sha zamonlarda matbuot bosh minbar vazifasini o‘tagan. Badiiy adabiyot ham to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’naviyat-ma’rifatga xizmat qilgan. Muhtaram Prezidentimiz to‘g‘ri aytdilar, o‘z davrida jadid bobolarimizning orzu-istaklari ro‘yobga chiqqanida edi, hozirgi ko‘plab muammolar allaqachon yechimini topgan bo‘lur edi. Demak, zamon o‘zgardi, taraqqiyot shiddati ham butkul boshqa sur’atda kechmoqda, buni unutmasligimiz kerak. O‘z vaqtida jadidlarimizni qiynagan, ortiqcha o‘zaro kurashlarga kuch sarflashga majbur qilgan katta-kichik mojarolarni endi, oradan 100-120 yil o‘tgach ham ezib-ichki qilib yotmasligimiz kerak. Eskilik va yangilik, milliy va umuminsoniy, tafakkur hurligi va biqiqligi singari muammolar o‘z-o‘zidan barham topmog‘i kerak bo‘lgan zamon kishilarimiz, axir.

– “Jadid” gazetasi haqida fikrlaringiz?

– “Jadid” kutilganidan ham shiddat bilan atoqli gazetalarimiz safidan o‘rin olmoqda. Uning har bir yangi sonini intiqib o‘qimoqdamiz. Uning faol mualliflari ko‘paya borayotgani quvonarli. Ixtisoslashgan o‘z mualliflari shakllanayotgani yanada quvonarli. “Jadid” – fikr dunyosi nihoyatda keng, qamrovi bepoyon, qalbi daryo, tutqich bermas quvnoq-kuyunchak, tog‘dek zalvorli, serjoziba va sershiddat nashr bo‘lib qolishiga ishonaman va ana shu qutlug‘ nom bilan atalgan gazeta orqali yurtimizdagi barcha jurnalist do‘stlarimizni kasb bayrami bilan chin dildan tabriklayman. O‘sha gap: “Tilda, fikrda, ishda birlik!” doimiy shiorimiz bo‘lsin.

Muhayyo RUSTAM qizi suhbatlashdi.

QUTLOV



27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni arafasida Prezident farmoni bilan bir guruh jurnalistlar davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Farmonga ko‘ra, hamkasbimiz, “Jadid” gazetasi adabiy muharriri Muhayyo Pirnafasova ham davlatimizning nufuzli mukofoti – “Shuhrat” medaliga munosib ko‘rilganidan behad xursandmiz.

Tahririyatimizning jonkuyar muharriri, taniqli jurnalist Muhayyo Pirnafasovani ushbu yuksak e’tirof bilan qutlab, keyingi ijodiy faoliyatida ulkan muvaffaqiyat yor bo‘lishini tilaymiz.

TAHRIRIYAT

30-IYUN – YOSHLAR KUNI



30-iyun – Yoshlar kuni sifatida mamlakatimizda keng miqyosda nishonlanishi an’anaga aylanib ulgurdi. Yana bir jurnalistik an’ana ham borki, muayyan sana yoki ayyom munosabati bilan soha mas’ullarini suhbatga tortib, ularning fikr-mulohazalarini jamoatchilikka yetkazib boramiz. Bugungi mehmonimiz – Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator Alisher SA’DULLAYEV.

“Jadidlar bugun nima qilgan bo‘lardi?”

– Alisher Zafarovich, sizni ko‘pchilik eng yosh vazir o‘rinbosari sifatida faoliyat boshlagan paytingizdan tanigan. O‘shanda hayajonga tushganingiz aniq. Ko‘nglingizda hadik ham bo‘lganmi?

– Ha, o‘shanda bir kunda hayotim o‘zgarib ketgan edi. Hayajonga ham tushdim, ulkan motivatsiya oldim, o‘zim sevgan ta’lim, intellektual salohiyatni oshirish sohasida katta ishlarni qila olish imkoni berilganidan xursand bo‘ldim. Ammo biroz xavotirlandim ham. Chunki men avval hech qachon davlat xizmatida ishlamagan edim, juda ko‘p masalalarni o‘rganishim va o‘z ustimda ishlashim zarur edi. Tasavvur qiling, bu juda katta mas’uliyat, axir. Avvalambor, muhtaram Prezidentimiz ishonchlarini oqlashim kerakligini his qilganman.

Ota-onam, oilam, meni tanigan barcha-barcha insonlar oldida qandaydir katta burchni tuyganman. Tabiiyki, menga vazirlikda, umuman, davlat strukturasida shubha bilan yoki “kecha uchta-to‘rtta o‘quv markazini yuritib kelgan bu bola respublikaga javob beradigan tizimda qanday ishlab keta olardi” deya ishonchsizlik bilan qaraganlar ham bo‘lgan. Axir, avval hech qachon nafaqat men tengi, balki mendan ham yoshi kattaroq yigitlar bunday lavozimda ishlamagan. Lekin ish jarayonida xavotirlarim kamayib bordi. Mutaxassislar, tajribali siyosatchilar, ham O‘zbekistonda, ham chet elda turli sohalarda ishlayotgan yurtdoshlarimiz bilan muloqotda bo‘lib, ishlab, davlat xizmatchisi sifatida ko‘p narsa o‘rgandim. Bunda men uchun asosiy suyanch va g‘ayrat manbayi davlat rahbarining o‘zi bo‘ldi. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yosh kadrlarni mas’uliyatli rahbarlik lavozimlariga tayinlash aynan u kishining siyosatlari edi.

– Yoshlar ishlari agentligining deyarli barcha loyihalari tez ommalashib, e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. Ayting-chi, bu g‘oyalar qanday paydo bo‘ladi? Qay tariqa amalga oshiriladi? Agar kimdir yangi g‘oya bilan agentlikka kelsa, unga qanchalik imkon beriladi?

– Bugun agentligimiz jamoasi tomonidan yoshlar orasida til o‘rganishni ommalashtirishga qaratilgan “Ibrat farzandlari”, zamonaviy kasblarni sun’iy intellekt orqali o‘qitishni yo‘lga qo‘yishga mo‘ljallangan “Ustoz AI”, internetda o‘zbekcha kontentni ko‘paytirishga bel bog‘lagan “WikiStipendiya”, kitobxonlikni targ‘ib qilayotgan “Mutolaa” hamda “Ming kitob” loyihalari va shu kabi yana o‘nlab tashabbuslar amalda ishlamoqda. Ular millionlab yoshlarning hayotiga kirib bormoqda, ularning ta’lim olishi va intellektual jihatdan rivojlanishida ko‘makchi bo‘lmoqda.

Bu loyihalarning yaralishi, g‘oyalarning paydo bo‘lishiga keladigan bo‘lsak, avvalambor, Yoshlar ishlari agentligida mamlakatimiz taraqqiyotining muhim yo‘nalishlari, masalan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi erishilishi kerak bo‘lgan natijalar va maqsadlar tahlil qilinadi. Yoshlar bilan ishlash, ta’lim, ijtimoiy sohalar, inson kapitalini rivojlantirish atrofidagi turli sohalarda katta tajribaga ega bo‘lgan, iste’dodli, salohiyatli mutaxassislar – xoh ular yosh bo‘lsin, xoh yoshi ulug‘ bo‘lsin – agentligimizda mehmon bo‘lishadi. Biz ulardan maslahatlar olamiz, fikrlar to‘playmiz, tahlil qilamiz, jamoamizda o‘zaro munozara qilamiz.

Agentlikka g‘oyalar bilan keladigan hammaga ochiqmiz, faqat bizning o‘z talablarimiz bor, albatta: g‘oya sifatli loyihaga aylanib, hayotga tatbiq qilinishi va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga mos, ularni qo‘llab-quvvatlovchi, yetarli samaraga ega bo‘lishi zarur. O‘rni kelganda ta’kidlash lozim, ko‘plab yangi loyihalar uchun g‘oyalar jadidlar hayoti, ijodi, Vatan taraqqiyoti yo‘lidagi faoliyatini o‘rganish orqali ham vujudga kelgan. Jamoamiz bilan “Jadidlar bugun tirik bo‘lganida nima qilgan, nima bilan shug‘ullangan bo‘lardi?” deb ko‘p o‘ylaymiz. Ensiklopedik ma’lumotlarni o‘zbek tilida internetda to‘plashga oid “O‘zbekcha Vikipediya” loyihamiz “Chig‘atoy gurungi”dan, “Ibrat farzandlari” tillar bilimdoni bo‘lgan bobomiz Is’hoqxon Ibratdan, “Mutolaa” loyihasi esa Behbudiyning 1908-yilda Samarqandda tashkil qilgan mutolaaxonasidan ilhom olib amalga oshirilmoqda.

– Siz parallel ravishda respublika Shaxmat federatsiyasi raisi vazifasida ham faoliyat olib borasiz. Bugun o‘zbek shaxmatchilari xalqaro maydonlarda olamshumul yutuqlar qayd etmoqda. Albatta, bunda siz va jamoangizning xizmati katta. Biroq bu natijalar to siz rais etib tayinlangungacha bo‘lgan izlanish-u mehnat samarasi, degan gaplar ham yo‘q emas. Bunga munosabatingiz qanday?

– Shaxmat federatsiyasi raisi etib tayinlanganimda oldimga strategik maqsadlar qo‘ydim. Jamoamiz bilan shu maqsadlar tomonga intilib boryapmiz. O‘zbekistonliklar shaxmatchi millat, intellektual jihatdan ildamlayotgan xalq sifatida butun dunyoga tanilishi, bunday imij nafaqat xorijda, balki O‘zbekistonda ham rezonans berib, yoshlar o‘ziga qat’iy ishonch ruhida, millatiga mehr bilan ulg‘ayishi, oldiga katta maqsadlar qo‘yishi lozim. Axir, bu judayam katta narsa. Biz birinchi kundanoq shunga intildik. Shuning uchun ham xalqaro yutuqlar ketma-ket kelyapti. O‘zbekistonda xalqaro darajadagi chempionat va turnirlarni o‘tkazyapmiz.

Albatta, bularning hammasi federatsiya raisining sharofati bilan bo‘ldi, deyish noto‘g‘ri. Bu, birinchi navbatda, davlat rahbarining qo‘llovi, e’tibori va ishonchi bilan reallikka aylanmoqda. Natijalarda ko‘p yillardan beri shaxmat sohasiga mehnati singgan insonlar, aqliy gimnastikaning o‘nlab yetuk mutaxassislari, ustozlarning hissasi ko‘p. Bu oxir-oqibat O‘zbekistonda bugun har bir yosh o‘z iste’dodini aniqlab, o‘z ustida ishlab, katta natijalarga erisha olishi, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun yaratilgan sharoitning samarasidir.

– “Mutolaa” boshqa loyihalarga qaraganda omadli va yoshlar uchun manfaatli bo‘lganini jamoatchilik e’tirof etyapti. Bu muvaffaqiyatning biron bir siri bormi? Va ijodiy ishi ilovaga joylashtirilgan ijodkorlarga qalam haqi to‘lash tizimini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilganmi?

– Virtual kutubxona shaklida sifatli audio va elektron kitoblarni jamlagan “Mutolaa” mobil ilovasi nihoyatda qisqa vaqtda – atigi to‘rt oy ichida 500 mingdan oshiq yoshlarni qamrab oldi. Mobil qurilmasiga “Mutolaa”ni o‘rnatib olgan yarim million yosh bugun turli janr va mavzulardagi 2 mingdan ortiq kitoblarni o‘qishi va tinglashi mumkin. O‘zbek adabiyotining eng sara asarlari, o‘zbek tiliga tarjima qilingan jahon adabiyoti namunalari iste’dodli aktyor va suxandonlar tomonidan ovozlashtirilmoqda. Mobil ilova interfeysi qulay bo‘lib, u doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Yaqin oylarda ushbu platformadan foydalanuvchilar soni bir millionga yetishi kutilmoqda.

Bunday samaradorlikning siri, avvalo, jamoaga yaxshi mutaxassislar jalb qilinganida deb o‘ylayman. Loyiha rahbari Sirojiddin Olimov “El-yurt umidi” jamg‘armasining granti asosida nufuzli Edinburg universitetida o‘qib kelgan. Yosh adib Javlon Jovliyev adabiy muharrir sifatida, bolalar yozuvchisi Sa’dullo Quronov ham mas’ul lavozimda “Mutolaa” loyihasini yuritayotganini aytib o‘tish lozim.

Albatta, kelajakda kitob mualliflariga qalam haqi to‘lash orqali ijodkorlarni rag‘batlantirish haqida bosh qotiryapmiz. Mobil ilova adib, shoir va olimlar uchun o‘z kitoblarini targ‘ib qilish maydoniga aylanishi – bizning muhim maqsadlarimizdan biri.

– Bu yil yoshlar kuni o‘zgacha nishonlanmoqda, gazetxon yoshlarimizga tilak va tabriklaringiz bo‘lsa, yo‘llashingiz mumkin.

– Barchaga 30-iyun – Yoshlar kuni muborak bo‘lsin! Bu yil mana shu bayram arafasida Butunjahon yoshlar festivali yurtimizda katta ko‘lamda o‘tkazilmoqda, unga dunyoning turli nuqtalaridan nufuzli mehmonlar kelmoqda. Bu festival – yoshlar uchun shaxsiy rivojlanish, dunyoqarashni kengaytirish imkoniyatini beruvchi ajoyib sovg‘a bo‘ladi, deb umid qilamiz. Undan tashqari, Olimpiya terma jamoamizni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Men o‘zbekistonlikman – qonimda g‘alaba” chellenjiga start berilmoqda, o‘ylaymanki, bu loyiha chekka hududlardagi yoshlargacha yetib borib, yangi iste’dodlarni kashf etishga, xalqimizni sportchilarimizga muxlis bo‘lish yo‘lida birlashtirishga xizmat qiladi.

“Jadid” gazetasi o‘quvchilari, yurt ertasi bo‘lgan yigit-qizlarga g‘ayrat-shijoat tilayman. Chunki oldingizga qo‘ygan ulkan orzu va maqsadlaringizga yetishmoq uchun sizga g‘ayrat va ilm zarur bo‘ladi.

– Siz va jamoangizga ko‘zlangan marralar sari dadil odimlashda kuch-quvvat tilaymiz. Jadid bobolarimiz orzusi bugungi yoshlar timsolida ushalib, millat taraqqiyga yuz tutishida Sizga ham shijoat va omad doimo yo‘ldosh bo‘lsin!

Dilmurod DO‘ST suhbatlashdi.

Nafasingdan gul-u tuproq uyg‘onar



O‘tkir RAHMAT

BOLAM, QALDIRG‘OCHLAR KELDIMI QAYTIB...

Onam betob edi...
Tashqari sovuq,
Fevralning ayozi izillar betin.
Isitma dardiga deyolmasdan yo‘q,
Shivirlab so‘rardi volidam sekin:

– Bolam,
qaldirg‘ochlar keldimi qaytib...

Mening javobimni eshitardi jim,
Ko‘zlarini yumib, ichdan tortib oh.
Negadir bo‘shashib ketardi ko‘nglim,
Mungli so‘zlarini eshitib nogoh:

– Bolam,
qaldirg‘ochlar keldimi qaytib...

Kunlar ham og‘rinib o‘tdilar bir-bir,
Shiftga tikilgandan ko‘zlar sarg‘ardi.
Sabrning dastidan chidolmay oxir,
Majolsiz ovozda so‘rab qo‘yardi:

– Bolam,
qaldirg‘ochlar keldimi qaytib...

Tunlarni oralab o‘tadi umr,
Shomlarga yetaklab boradi kunduz.
Bilmadim, dilidan nelar o‘tgandir,
Borini umidga baxsh etgan ul so‘z:

– Bolam,
qaldirg‘ochlar keldimi qaytib...

Shunchalar bo‘ldingmi, hayot sen yovuz,
Hayronman, bu foniy dunyo ishidan.
O‘ngimni allalar ba’zida ma’yus,
Bir ovoz keladi ba’zan tushimdan:

– Bolam,
qaldirg‘ochlar keldimi qaytib...

Ey hamal, buncha ham sog‘intirmasang,
Nafasingdan gul-u tuproq uyg‘onar.
Hanuzki, o‘ylarim bosadi xarsang,
Mening yuragimda bir savol yonar:

“Bolam,
qaldirg‘ochlar keldimi qaytib...”

ADOLAT

Oftob, ko‘rinmasang tunlarga bayram,
Yulduzlar sochilib nozlanar hatto.
Zulumot soch yoyib borlig‘i yayrab,
Tush ko‘rib uxlaydi tong otguncha to.

Oftob, ko‘rinmasang tilsim bu olam,
Dunyoning kengligi ko‘zdan panada.
Qayda yig‘layotir qayg‘u, g‘am, alam,
Qaysi bir kimsaning burni qonagan...

Oftob, ko‘rinmasang yirtiq-yamoqlar
Borligi namoyon bo‘lmaydi axir.
Kimdandir qolgan u pista-po‘choqlar,
O‘zganing bo‘yniga qolmog‘i og‘ir...

Oftob, ko‘rinmasang oq va qorani
Biridan birini ajratmoq azob.
Besh kunlik dunyoda ochib orani,
Bir umr bor bo‘lgin, muqaddas OFTOB!

***

Ketishga chog‘landim,
Dilimda otash,
Ko‘ngil uzmoqlikka etolmam jur’at.
Nimadir o‘ziga tortadi yakkash,
Bilmadim, ne edi bu sirli qudrat.

Ota uy.
Onamning so‘zlari yoniq,
Mehr-u muhabbatdan taft ulashardi.
Beg‘ubor bolalik dargohi ulug‘,
Xotir-u xayolda shunday yashardi:

“Buncha ham shoshmasang, ishing qochmaydi,
Ertaga ketsang ham bo‘lardi, bolam...”
O‘shanda xo‘rsinib jilmayib qo‘ydi
Meni qo‘yvorgisi kelmagan onam...

Aytganday, ishlar ham ketmadi qochib,
Men unga erta-kech yurdim ko‘milib.
Topmadim biroz vaqt tashvishdan kechib,
O‘ylasam yig‘lagim kelar dil to‘lib...

Endi jonim o‘rtar hasratli bir his,
Qaysidir og‘riqdan aylaydi ogoh.
Sog‘inch quchog‘ida mehribon, munis,
Olisdan yo‘limga boqar bir nigoh.

Ruhim bu yo‘llarda ne-ne g‘am yutgan,
Umrimni horitgan tashvish va qayg‘u.
Ko‘zlari yoshlanib intizor kutgan
Ehtimol, onamdir, onam edi u.

Bahorim o‘rnini tortib oldi kuz,
Armonni ko‘ngildan daf etolmam hech.
O‘ngimda kelmayman unga yuzma-yuz,
Endi tushlarimga kirar u har kech...

Olisdan yo‘limga boqar bir nigoh...

***

“Jo‘ra, tut pishig‘iga yetsaydik koshki...”
Do‘stim Obloberdini xotirlab

Sovuqning zug‘umi bunchalar qattol,
Sandalning taftidan topmaysan orom.
Tanamda quvvat kam, kundan kun behol,
Uyqumda tinchim yo‘q, tun ham beorom...
Ko‘zimda qalqigan sog‘inchli yoshki,
Jo‘ra, tut pishig‘iga yetsaydik koshki...

Uvillab eshikka shamol urar bosh,
Tuynukdan izillab qo‘yar izg‘irin.
Sabrdan yo‘g‘rilgan metinday bardosh,
Yurakka baxsh etgan sovutmay qo‘rin...
Bilmadim, balki bu bir shirin tushki,
Jo‘ra, tut pishig‘iga yetsaydik koshki...

Bilasan, bolalik kechdi dalada,
Bir umr suyagim mehnatda qotdi.
Yostiqqa bosh qo‘ygan bemor pallada,
Bir umid dilimda meni uyg‘otdi...
O‘ylasam, bu manzil orzumning ko‘shki,
Jo‘ra, tut pishig‘iga yetsaydik koshki...

Fursatlar hol so‘rmay boradir o‘tib,
O‘y sursam o‘yimning ko‘rinmas so‘ngi.
Armon-u ohlarni ichimga yutib,
Har kuni sog‘inib kutaman tongni.
Bu olis bolalik otashin ishqi,
Jo‘ra, tut pishig‘iga yetsaydik koshki...

BISOTIM, BORLIG‘IM – EY, JONIM VATAN!

Tuproq,
Kiprigingga g‘uborlar qo‘nib,
Sho‘xlik qilib yurar hamon sabolar.
Sening quchog‘ingda tug‘ilib, unib,
Ertakka aylandi momo, bobolar.

Muqaddas ruhiyat,
Har garding – kitob,
Varaq-varaq qo‘lda o‘pib o‘qirlar.
Poyida kim seni toptasa shu tob,
Bilginki,
Bu faqat nonko‘r, so‘qirlar!

Tuproq,
Onajonim,
Otamsan, boqsam,
Daraxt-u tog‘ bo‘lib adl turgandek.
Hidlaring mast etgan ayni subhidam
Bulbulday bog‘larda sayrab yurgandek.

Burro zabonimning tafti so‘nmagay,
Bu hayot oftobi toki bor ekan.
Sening diydoringga umr to‘ymagay,
Bisotim, borlig‘im –
Ey, jonim Vatan!

YANGI NASHRLAR

“NUR BORKI, SOYA BOR” – XITOY TILIDA

Yaqinda O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” kitobi AQShda sevib o‘qilayotganidan xabar topib, behad quvongan edik.



Pekinda bo‘lib o‘tgan 30-Xalqaro kitob ko‘rgazmasi doirasida yurtdoshimiz Dildora Ismoilova tomonidan sevimli adibimizning xitoy tiliga tarjima qilingan “Nur borki, soya bor” kitobi taqdimoti o‘tkazildi.

Tadbirda ushbu mamlakatdagi elchixonamiz, Xitoy davlat matbuot muassasalari, nashriyot va bosmaxona vakillari, adabiyotshunos olimlar ishtirok etdi. So‘zga chiqqan “Duzhe” noshirlik uyi prezidenti Van Syanmen, nashr muharriri Ma Lina va boshqalar ikki xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda badiiy adabiyotlar tarjimasi muhim ahamiyat kasb etishini aytib o‘tishdi.

Tarjimon boshqa durdona asarlarimizni ham xitoy tiliga o‘girish va elchixona yordamida nashr ettirishni rejalashtirgan.

DO‘STLIK KUYCHISI


O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida “Do‘stlik” ordeni sohibi, Tojikistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, zullisonayn shoir va tarjimon O‘lmas Jamol tavalludining 90 yilligi munosabati bilan chop etilgan “O‘zim dunyo aro dunyo” kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid, respublika tojik milliy madaniy markazi raisi Gulandon Subhonova va boshqalar O‘lmas Jamol hayoti va ijodi, tarjimonlik mahorati hamda undan qolgan boy badiiy merosning bugungi yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritishdi. O‘lmas Jamol Tojikistondagi o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan, sermahsul vakili edi. “Surur”, “Masrur”, “Manzur” va “Ma’mur”dan iborat to‘rt devon shoirning eng sara g‘azallarini o‘z ichiga olgan. U she’rlar yozish bilan birga, jurnalistika sohasida ham barakali ijod qildi. Uzoq yillar Dushanbeda o‘zbek tilida nashr qilinadigan “Xalq ovozi” gazetasida mehnat qildi. Vafotidan keyin Xatlon viloyatining ma’muriy markazi – Boxtar shahri ko‘chalaridan biriga shoir nomi berildi.



– O‘lmas Jamol butun faoliyati davomida o‘zbek va tojik xalqlarining azaliy do‘stligini baralla kuyladi, – dedi Gulandon Subhonova. – Shoir ijodini o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prik, deyish mumkin. U ikki tilda baravar ijod qildi, asarlarida qardoshlarni birdamlik, do‘stlik, ahillikka chorladi.

Zulayho AHMADJONOVA



“VATAN” SAHIFALARIDA...

Yaqindagina mushtariylarimizga “Vatan” deb nomlangan yangi jurnalning nishona soni chop etilgani haqida xabar bergan edik. Mana, jurnalning ikkinchi soni ham qo‘limizda turibdi. Mazkur nashrdan ham milliy o‘zlik, ona yurtga muhabbat tarannum etilgan, millatimiz o‘tmishi va buguni, so‘nggi yillarda yurtimizda yuz berayotgan islohotlar, bugunning dolzarb masalalari, amalga oshirilishi belgilab olingan, kelgusi rejalar yoritilgan maqolalar, shuningdek, ilmiy-adabiy asarlardan parchalar, she’rlar o‘rin olgan.

Jurnalning ilk sahifalaridayoq Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Go‘zal Turkiston” she’rini o‘qishingiz mumkin. Turkiyalik siyosatchi Osman Mestenning shu yil may oyida Turkiya Buyuk millat majlisida so‘zlagan nutqi “O‘zbekiston buyuk Turkistonning qalbidir” sarlavhasi ostida berilgan. Osman Mesten o‘z nutqida yurtimizni: “O‘zbekiston bugungi kunda faqat Markaziy Osiyoning emas, balki butun dunyoning porloq yulduziga aylangan”, deya e’tirof etadi. “Xalqaro hayot” ruknidan O‘zbekistonning Xitoydagi elchisi Farhod Arziyevning “O‘zbekiston – Xitoy: o‘zaro do‘stlik, ishonch va teng manfaatli hamkorlik” nomli tahliliy maqolasi o‘rin olgan. Unda ikki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalari haqida so‘z boradi. Hozirda Moskva shahrida istiqomat qiluvchi, uzoq yillar yurtimizda turli idora, vazirliklarda faoliyat ko‘rsatgan Anna Goncharovaning dil so‘zlari “Shavkat Mirziyoyev – o‘zbek xalqining fidoyi farzandi!” sarlavhasi bilan nashr qilingan. Yaqinda O‘zbekistonga kelib ketgan muallif yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar, islohotlar, bunyodkorliklardan hayratga tushganini bayon qiladi.

Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimovning “Yana “Yer yuzining sayqali”ga aylanayotgan Samarqand” nomli maqolasida ushbu qadim shaharning tarixiy maqomi haqida to‘xtalib, Samarqand Alp Er To‘nga davridayoq jahonning muhim kentlaridan biriga aylangani, nafaqat savdo-sotiq, balki ilm-u irfon beshigi bo‘lgani, turli davrlarda amalga oshirilgan bunyodkorliklarga butun dunyo havas qilgani aytiladi.

Shuningdek, jurnal sahifalarida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf jome’ masjidi imom-xatibi, Shayx hazratlarining o‘g‘li Ismoil Muhammad Sodiq bilan otasining ibratli hayot yo‘li, shaxsiyati haqidagi suhbat o‘rin olgan.

Turkistonning yovqur farzandi Shermuhammadbek qo‘rboshining nabirasi Osmanbek “O‘zbekiston bizning yuragimizda” nomli maqolasida bobosini: “Bizga Vatan va millat ishqini meros qoldirdi”, deya yodga oladi. “Vatandosh minbari” ruknida Turkiston – Amerika uyushmasi prezidenti Abdulla Xo‘janing “Vatan, to tanda jonim bor, seningdirman” sarlavhali ko‘ngil kechinmalari o‘quvchini ta’sirlantiradi.

Yurtimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar, istiqbolli rejalar haqida iqtisodiyot fanlari doktori Nurislom To‘xliyevning “Mintaqa mamlakatlari iqtisodiy hamkorligi: zarurat, imkoniyat va natijalar”, G‘ayrat Sheraliyevning “O‘tmish va kelajak chorrahasi”, iqtisodiyot fanlari doktori Akram Hoshimovning “O‘zbekistonning 2030-yilgacha “yashil taraqqiyot”ga erishish strategiyasi qanday?”, tarix fanlari doktori Alisher Sabirovning “Markaziy Osiyo: tarixiy-madaniy birlikni anglashdan mintaqaviy integratsiya sari” maqolalarini o‘qishingiz mumkin.

Ushbu nashrda tarixiy mavzularga ham murojaat qilingan bo‘lib, unda “O‘zbek” etnonimi: millatimiz nomi qanday paydo bo‘lgan?”, “Abdullaxon – Turonning so‘nggi buyuk hukmdori”, “Millat: biz uni qanday tushunamiz yoki tushunmog‘imiz kerak?” kabi maqolalar o‘qishliligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, jurnal sahifalarida Umberto Ekoning “Joys poetikalari” kitobi haqida, “Uliss” romani tahliliga bag‘ishlangan bobidan parcha, Timoti J.Uinterning “Mutaassiblik qashshoqligi” maqolasi tarjimalari bilan ham tanishishingiz mumkin. “Aytmatovni sevishadi, o‘qishadi, eslashadi” nomli suhbat, “Oriyentalizm”: Sharq va G‘arb masalasiga yangicha qarash” maqolalari ham o‘quvchini fikrlashga, mushohada yuritishga undaydi.

Jurnalning did bilan sahifalanishi, o‘ziga xos dizayn, muqovada berilgan “Toshkentda tong. Qaldirg‘ochlar raqsi”, “Javzo” nomli fotosuratlar ham o‘quvchining estetik tafakkuriga ta’sir etishi, mutolaaga rag‘batini oshirishi shubhasiz.

M.IBROHIMOVA

Abdumannon MUHAMMAD olgan surat.

NIGOH

Navoiy ko‘prigi

Alisher Navoiy hayotining eng katta qismini bashariyatni maqsud manziliga yetkazuvchi o‘ziga xos ma’naviy ko‘prik qurishga sarflagani uning betakror asarlarida asrlar osha o‘zini namoyon etib kelmoqda.



Azizullah ARAL,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Hazrat Navoiyning ushbu ma’naviy ko‘prigi butun insoniyatni ruhan bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan olib qaraganda, Alisher Navoiy merosini butun boshli dorulfununga qiyoslash mumkin. Bu dorulfunundan saboq olgan kishi bir qator sohalar bo‘yicha keng ma’lumotga ega bo‘lishi bilan birga, mazkur dargohda adabiyotdan tarixga qadar, ilohiyotdan insoniyatga qadar, ishq-u muhabbatdan mehr-u oqibatga qadar, me’morlikdan vatanparvarlikka qadar, san’atdan sevgiga qadar barcha fanlarni kasb etishi muqarrar. Chunki Navoiy serqirra inson, uning tafakkur doirasini esa ma’rifat, shariat, tariqat va haqiqat kabi tushunchalar tashkil etadi. Ushbu to‘rt unsur uning ijodiyotida deyarli bir o‘lchamda o‘z aksini topgan. Shu bois Navoiy jahonshumul o‘zbek/turkiy mutafakkir sifatida tan olingan.

Navoiyshunoslarning e’tiroficha, uning tili va so‘zlari o‘zbeklarniki, ammo tafakkuri va tushunchalari butun olamnikidir. Navoiy o‘zining betakror ijodiyoti bilan ma’naviyat olamida mustahkam ruhiy ko‘prik o‘rnatish bilan birga, moddiy-amaliy ko‘priklar qurishga ham muvaffaq bo‘ldiki, u qoldirgan meros hamon xizmat qilib kelmoqda. Shoirning bunyodkorlik ishlarida ko‘priklar Navoiy faoliyatining bir qismi, xolos. U qurdirgan inshootlar ko‘p. Hazrat Navoiyning Xurosondagi bunyodkorlik faoliyati Afg‘oniston navoiyshunosligining o‘ziga xos qirrasi bo‘la oladi.

Tarixchi olim Vohidi Juzjoniy o‘zining “Alisher Navoiy Foniy” nomli asarida yozishicha, “Alisher Navoiy 1441-yil Hirotdagi “Tulki ko‘prik” yaqinidagi “Davlatxona” bog‘ida dunyoga kelgan. O‘sha kezlarda “Davlatxona” katta bog‘ va hashamatli saroy bo‘lgan. Mazkur bog‘da Sulton Husayn Boyqaroning otasi Amir G‘iyosiddin Mansur yashagan. Sulton Husayn ham ana shu bog‘da dunyoga kelgan. Bugunga kelib ushbu bog‘ butunlay ekinzorga aylanib ketgan bo‘lsa-da, hozir ham u yerlar “Davlatxona” nomi bilan atalib kelinadi. “Puli tulki” (“Tulki ko‘prik”) Navoiy zamonidan bugunga qadar o‘z o‘rnida mustahkam turib xizmat qilib kelmoqda”.



Navoiy ko‘prigi. XX asr ikkinchi yarmi.

Alisher Navoiy asarlarida ko‘prik so‘zini haqiqiy va majoziy ma’nolarda ishlatganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, “Quyoshning sharqdan g‘arbga mo‘tadil harakati, bulutdan botqoqlik yuziga (nurdan) ko‘prik solinmaguncha ko‘zga tashlanmaydi”. Yana bir misol: “Har qachon Gozurgohga Shayx ul-islom ziyoratig‘a borsa ermish, ko‘prikdin o‘tkach kafshin chiqarurki...”. Birinchi misolda Navoiy ko‘prik so‘zini majoziy ma’noda – nurdan yasalgan ko‘prik ma’nosida ishlatgan bo‘lsa, ikkinchi misolda suv ustiga qurilgan haqiqiy ko‘prikni nazarda tutgan.

Ma’lumkim, Navoiyning yirik davlat arbobi, Xuroson mulkining nufuzli amiri sifatida amalga oshirgan xayrli ishlari bugunga qadar insoniyat uchun xizmat qilib kelmoqda. Ul zot qurdirgan xayriya binolardan qadim Xuroson, hozirgi Afg‘oniston va Eron hududida hozirgacha saqlanib qolgan inshootlarni, G‘iyosuddin Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zaynuddin Vosifiy, Faxriy Hiraviy, Som Mirzo kabi mualliflar asarlarida ham uchratish mumkin. Ular bunday xayriya binolar soni 370 dan ortiqligini qayd qilishadi. Som Mirzo o‘z asarlarida Navoiy qurdirgan ko‘priklar soni 15 ta desa, G‘iyosuddin Xondamir ularni 27 ta deb tilga oladi. Saripul viloyatidagi “Juzjonon ko‘prigi” xalq og‘zaki ijodida “Navoiy ko‘prigi” nomi bilan mashhur bo‘lib, katta tarixiy ahamiyatga molik inshoot hisoblanadi. Juzjonon Xurosonning qadimiy shaharlaridan hisoblanib, buyuk sarkarda Abumuslim Xurosoniy shu yerda dunyoga kelgan. Qadimgi Juzjonon, keyinchalik Anbor yo Anbir nomi bilan atalgan. Xuroson daryosi ushbu hududni sharqiy va g‘arbiy qismlarga bo‘lib qo‘ygan.

Sulton Husayn Boyqaro hokimiyati davrida Anborning sharqiy va g‘arbiy qismlarini bir-biriga bog‘lash maqsadida katta ko‘prik qurishga qaror qilingan. Mazkur ko‘prik Sulton Husaynning buyrug‘iga binoan Alisher Navoiy tashabbusi va bevosita uning ishtiroki asosida pishiq g‘ishtdan bunyod etilgan. Xalq orasida ushbu ko‘prikni qurishda Navoiyning o‘zi qatnashgan degan gap bor. Shu bois xalq ushbu ko‘prikni “Navoiy ko‘prigi” deb ataydi. Adabiyotshunos olim Muhammad Olim Labibning “Alisher Navoiyning Xurosonda qoldirgan izlari…” maqolasida qayd qilinishicha, mazkur ko‘prik shundan keyin Anbor shahri, Sarpul (forschada – ko‘prik boshi ma’nosida) nomi bilan atala boshlagan. Ushbu ko‘prik haqida folklor ma’lumotlari ham mavjud. Unga ko‘ra, aholi ushbu ko‘prikning 500 yil oldin qurilganini tasavvur qilib, uning atrofidagi chinor daraxtlarni Mavlono Jomiyga nisbat berganlar, ya’ni bu chinorlarni Jomiy ekkan deb hisoblashadi. Lekin mashhur tarixchi G‘iyosuddin Xondamirning Alisher Navoiy sharhi holi, ilmiy-adabiy va bunyodkorlik asarlari haqida yozgan “Makorimul axloq” (“Yaxshi xulqlar”) kitobining Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmasi ko‘rilganda ushbu ko‘prik “Puli Juzjonon” (Juzjonon ko‘prigi) bo‘lib, Mir Alisher Navoiyning xayriya inshootlari jumlasidan ekanligi ma’lum bo‘ldi.



Navoiy ko‘prigining hozirgi ko‘rinishi.

Amir Alisher Navoiy asarlarida Xuroson mulkining turli hududlarida bino etgan ko‘priklari ro‘yxati quyidagicha: Sepulak ko‘prigi, Tulki ko‘prigi, Soqsalmon ko‘prigi, Childuxtaron ko‘prigi, Tarnob ko‘prigi, Qalandaron ko‘prigi, Qozbonon ko‘prigi, Poyi xoja ko‘prigi, Xayrobod ko‘prigi va to‘g‘oni, Juzjonon ko‘prigi, Nigor ko‘prigi, Qo‘shanj ko‘prigi, Tir ko‘prigi, Nahri arab ko‘prigi, Chaxcharon ko‘prigi, Turuq ko‘prigi va to‘g‘oni.

“Makorimul axloq”da qayd etilishicha, Juzjonon ko‘prigi Sarpul tumanidagi “Obi safed” (Oq suv) daryosi ustiga qurilgan bo‘lib, hozirgacha saqlanib qolgan. Yengil va og‘ir transport vositalari hech bir qiyinchiliksiz uning ustidan o‘ta oladi.

Temuriylar madaniyati davridan bugungi davrimizgacha yetib kelgan bu tarixiy “Navoiy ko‘prigi” shaharning ikki tomonini bir-biriga bog‘lab turuvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. Manbalarda ta’kidlanishicha, ushbu ko‘prik qurilishida ganj shirasi, ohak va somon kuli birga qorilib, uzoq muddat pishitilib, so‘ng kattaligi 24x24, qalinligi 5 santimetr bo‘lgan kvadrat shaklida g‘isht yasab toblashgan. Bunday usulda qurilgan ko‘priklar suv zarbi, yuk bosimi va zilzilaga chidamli bo‘lgan. Hozirda mazkur ko‘prik shimoliy Afg‘oniston (qadimgi Janubiy Turkiston)ning Sarpul viloyatida joylashgan. Navoiy ko‘priklari besh asrdan oshibdiki, xalqqa xizmat qilib kelmoqda.

TALQIN

“Go‘zal cho‘lpon edim...”

O‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi otashnafas shoir, nozikta’b nosir, mohir tarjimon Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlarini o‘qimagan kitobxon bugun yurtimizda kam topilsa kerak. Haqiqat egiladi, bukiladi, ammo sinmaydi, deganlaridek, bir qator o‘zbek ziyolilari – shoir va yozuvchilar, olim va ma’rifatparvarlar o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillari oxiri va elliginchi yillar boshida qamoqqa tashlandi. Ularning ko‘pi, xususan, o‘ttiz yettinchi yil qatag‘oniga uchraganlarning aksariyati qatl etildi, Sibirga surgun qilindi. Ular millatimiz erki, ozodligi, yurtimiz kelajagi uchun qayg‘urgan, muqaddas ona zaminimiz yot unsurlar oyog‘i ostida toptalishiga qarshi kurashgan fidoyi insonlar, millatimizning o‘zligini, boy qadimiy ma’naviy va moddiy merosini asrab-avaylashga intilgan, ayni vaqtda xalqimizni, xususan, yosh avlodni yangilikka, ilm-ma’rifatga da’vat etgan, bu ilg‘or g‘oyani odamlarimiz ong-u shuuriga singdirish uchun turli usullar o‘ylab topgan, yangicha maktablar, teatrlar ochgan jadid bobolarimiz edi. Ular jismonan yo‘q qilindi, asarlari taqiqlandi, hatto ushbu asarlarni o‘qigan, uyida saqlagan odamlar ham hibsga olindi.

Benazir shoir Cho‘lponni ham ana shu qattol zamon o‘z domiga tortdi. U qirq yoshida (1938-yil) qatl etildi. Asarlarini nashr etish u yoqda tursin, borlarini o‘qish ham man etildi.

Istiqlol tufayli ko‘plab ma’rifatparvar bobolarimiz qatori Cho‘lpon asarlari ham nashr etila boshlandi. 1991-yil 25-sentyabrda Cho‘lponga mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. Milliy ozodlik uchun kurash yo‘lida ko‘rsatgan matonati, jasorati va buyuk xizmatlari hamda o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun 1999-yilda u “Mustaqillik” ordeni bilan taqdirlandi. She’riy va nasriy asarlari qayta-qayta nashr etilmoqda, she’rlari, g‘azallari xonandalarimiz tomonidan kuylanmoqda.

Qalandardek yurib dunyoni kezdim,
topmayin yorni,
Yana kulbamga qayg‘ular,
alamlar birla qaytdim-ku.

Muhabbat osmonida go‘zal
Cho‘lpon edim, do‘stlar,
Quyoshning nuriga toqat
qilolmay yerga botdim-ku.

Ushbu misralar bilan aytiluvchi ashulani bir necha xonanda, xususan, O‘zbekiston xalq artisti Ma’murjon To‘xtasinov ijrosida tinglaganmiz. Lekin ushbu xotira-maqolada mazkur g‘azalning boshqa xonanda talqini haqida, shu asnoda o‘sha buyuk san’atkor ijodi xususida muxtasar fikr yuritishni lozim topdik.

* * *

Shunday iste’dodli ijodkorlar bo‘ladiki, hayotligidayoq mumtoz san’atkor darajasiga erishadi, o‘z san’ati bilan bir emas, bir necha avlodni tarbiyalaydi. Ularning nomi va asarlari asrlar davomida xalq xotirasida yashaydi.

Elimizning buyuk san’atkorlaridan bo‘lgan Halima Nosirova ana shunday benazir san’at ustalari toifasidan edi. U o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillaridayoq xalq qalbiga kirib borgan, 24 yoshida (1937-yilda) “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Bunday san’atkorlar haqida gap ketganda, ularning nomi yonida har xil epitetlar, unvonlar-u ta’riflarga ehtiyoj qolmaydi. Zero, ularning nomiyoq hamma narsani aytib turadi. Shu ma’noda, Halima Nosirova nomi bugungi kunda ham mamlakatimiz san’at shinavandalari uchun g‘oyat e’zozli va qadrlidir.

Halima opa kuylagan o‘nlab qo‘shiqlar, turli spektakllarda ijro etgan rollar hamon san’at muxlislari yodida. Uning qo‘shiqlarini bugun ham qayta-qayta eshitamiz. Halima Nosirova kuylagan “Ushshoq”, “Samarqand ushshog‘i”, “ Chapandozi navo”, “Chorgoh”, “Segoh”, “Sayyora”, “Ey, yor, xush kelibsiz”, “Chaman ichra”, “Men o‘zbek qiziman” kabi qo‘shiqlar milliy qo‘shiqchilik san’atimizning oltin xazinasidan joy olgan. “Maysaraning ishi”, “Gulsara”, “Tohir va Zuhra”, “Zaynab va Omon” kabi o‘zbek operalarida Halima opa ijro etgan bosh partiyalar san’at muxlislari yodida. Milliy opera san’atimizning ko‘plab yosh ijodkorlari Halima Nosirova mahoratini o‘rganadi, bu ulug‘ san’atkor ijodini o‘zlari uchun bir maktab sifatida qabul qiladi.

Buyuk insonlarning aksariyati hayotda g‘oyat kamtar va oddiy bo‘ladi. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi tahririyatida ishlagan yillarimda Halima opa bilan bir necha marta muloqot qilganmiz. Dastlabki suhbatda men opaning nihoyatda qadar kamtar va soddaligidan hayratga tushganman. Nahotki men sahnada ko‘rgan, ashulalarini hayajon bilan tinglagan afsonaviy san’atkor ro‘paramda o‘tirgan mana shu opa bo‘lsa, deb ajablanganman. Chunki o‘zini yuqori tutish, men falon san’atkorman, deb g‘ururlanish, kibr-havo, boshqalarga mensimay qarash kabi odatlar opaga mutlaqo begona edi. Bir safar uzun o‘rilgan sochini yosh qizlardek o‘ynab o‘tirgani hamon ko‘z o‘ngimda. Bunday suhbatlarda opa san’at, adabiyot, hayot haqida to‘lib-toshib so‘zlardi, ustozlari haqida to‘lqinlanib gapirardi. Ayni vaqtda, ko‘zga tashlangan yosh xonandalar, aktrisalar to‘g‘risida hayajon bilan so‘zlab, bunday iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga har tomonlama yordam berish kerak, deb ta’kidlardi.



Ozarbayjonning Yevlax tumanidagi Mingechaur suv omborida katerda sayr. 1979-yil, iyun.

Kamina Halima opa bilan ijodiy safarlarda birga bo‘lganman. 1979-yili Ozarbayjonda o‘tgan O‘zbekiston adabiyoti va san’ati dekadasi shulardan biri.

Bir voqea kechagidek esimda. Ozarbayjonning Yevlax tumanida Mingechaur suv ombori bor. Suv ombori deyilsa-da, aslida juda katta ko‘l ekan. Unda kemalar, katerlar suzadi. Mezbonlar o‘zbekistonlik mehmonlar hurmati uchun ana shu suv omborida katerda sayohat tashkil etishdi. Sayohat nihoyatda zavqli, qiziqarli va hayajonli kechdi. Shu tufayli bo‘lsa kerak, bir mahal Halima Nosirova qo‘shiq boshlab yubordi:

Muhabbatning saroyi keng ekan,
yo‘lni yo‘qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig‘ bu
xatarlik yo‘lda qotdim-ku.

Xonandaning sehrli ovozi hammani rom etdi, o‘zaro gurunglar, shovqin-suronlar tindi. Katerning ovozi eshitilardi, xolos. Qo‘shiq tobora avjiga chiqardi. Musiqa yo‘q, ammo ashula, ya’ni Halima opaning jarangdor ovozi atrofga keng yoyilar, u butun vujudi bilan berilib kuylardi. G‘azal ham go‘yo ushbu safar uchun yozilganday edi:

Karashma dengizin ko‘rdim,
na nozli to‘lqini bordir,
Halokat bo‘lg‘usin bilmay
qulochni katta otdim-ku.

Ovoz sehri, g‘azal so‘zlari bir-birini to‘ldirib borar, shu tufayli birov miq etmasdi. Halima opa ichki bir entikish bilan berilib kuylardi. U ko‘zlarini yumib olgan, xayolan qaylardadir kezardi nazarimda. Balki, Boku teatr texnikumida o‘qigan yillarini eslayotgandir, o‘zini o‘sha yillarda yurganday tasavvur qilayotgandir. Boshqalar ham qayerda ekanini unutgandi go‘yo.

Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do‘stlar,
Bu dunyo deb u dunyoni
bahosiz pulga sotdim-ku.

Uning gulzorida bulbul
o‘qib qon ayladi bag‘rim,
Ko‘zimdan yoshni jo aylab
alamlar ichra botdim-ku.

Qalandardek yurib dunyoni kezdim,
topmayin yorni,
Yana kulbamga qayg‘ular,
alamlar bir-la qaytdim-ku.

Qo‘shiq tugadi. Hamma jim. Nazarimda, qo‘shiq va uning so‘zlari sehridan hech kim chiqib ketolmasdi.

Men Halima opaning ko‘plab qo‘shiqlarini eshitgan, uncha-munchasining so‘zlarini bilar edim. Bu ashulani eslolmadim. Ammo g‘azal so‘zlari tanishday tuyulardi. Qayerdadir o‘qigan edim. Cho‘lponning uslubiga o‘xshaydi. Nega unda g‘azal so‘ngida shoirning nomi keltirilmadi? Shoirning 1926-yilda arab alifbosida bosilgan “Tong sirlari” degan yupqagina kitobida o‘qimagan edimmi bu g‘azalni?! (Shu kitobni o‘qish uchun arab alifbosini o‘rgangan edim). Shunga o‘xshaydi... Opadan so‘rashga istihola qilib, professor Laziz Qayumovga shu haqda gap ochdim. Laziz aka bu ashula Cho‘lpon g‘azali bilan kuylanganini aytdi. Demak, farazim, o‘ylaganim to‘g‘ri ekan. Laziz akaning aytishicha, Halima opaning bilim doirasi keng, yuragida Vatanga, millatga mehr-muhabbati nihoyatda baland ekan. Cho‘lpon, Usmon Nosir singari buyuk shoirlarimiz ijodini yaxshi bilar, tor doiralarda ularning ijodidan namunalar ijro etar ekan. Ochiq aytishga, tabiiyki, zamon yo‘l bermagan.

Oradan yillar o‘tib Cho‘lpon asarlari nashr qilingach, men ushbu g‘azalni topib o‘qidim. E’tiborlisi shundaki, u 1920-yili Bokuda yozilgan ekan. Boz ustiga Halima Nosirova Boku teatr texnikumida tahsil olgan. Balki, Bokuda o‘qib yurgan kezlarida ham bu g‘azalni ashula qilib aytib yurgandir opa. O‘sha damlarni yodga olgan bo‘lsa, ne ajab. Halima opa shu ashulani bekorga, tasodifan kuylamagan. G‘azalning oxirgi ikki satrini ongli ravishda tushirib qoldirgan:

Muhabbat osmonida go‘zal
Cho‘lpon edim, do‘stlar,
Quyoshning nuriga toqat
qilolmay yerga botdim-ku.

Agar ushbu satrlar aytilganda bu g‘azal Cho‘lpon qalamiga mansubligi ayon bo‘lib qolardi. Halima opa chuqur mulohazali, sezgir va hushyor san’atkor edi-da...

O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida Cho‘lpon asarlarini o‘qigan odamlar juda kam edi. Cho‘lponning mashinkada ko‘chirilgan bir turkum she’rlarini tengdoshlarim qatori men ham o‘qigan edim. “Kecha va kunduz” romanining mashinkada ko‘chirilgan nusxasini navbatma-navbat o‘qigandik. Muhlat ikki kun. Men ham ikki kunga olib, kecha-kunduz o‘qib qaytarib berganim yodimda.

Halima Nosirova serqirra san’atkor edi. U faoliyatini 1927-yilda aktrisa sifatida boshlagan. O‘zbek davlat namuna sayyor truppasida “Revizor” spektaklida Mariya Antonovna, “Malikayi Turandot”da Malika rollarini ijro etgan. Aktrisa keyinchalik bir qator musiqali dramalardagi bosh rollarda chiqib, ham aktrisa, ham xonanda sifatida mahoratini namoyon etgan. Bu uning opera san’atiga kirib kelishiga yo‘l ochadi. Y.Brusilovskiyning “Er Targ‘in” operasidagi Oqjunis obrazi Halima Nosirovaning opera san’atida kuylagan birinchi partiyasi edi. Ilk o‘zbek operalari hisoblangan “Bo‘ron”da (G.Vasilenko va M.Ashrafiy asari) Norgul, “Layli va Majnun”da (T.Sodiqov va R.Gliyer asari) Layli partiyalarida ham chiqadi. Shundan keyin qator jahon klassik va o‘zbek milliy operalarida bosh partiyalarni ijro etadi. Ular orasida S.Yudakovning Hamza asari asosida yozgan “Maysaraning ishi” operasidagi Maysara partiyasi alohida ajralib turadi. Bu rolni yuksak darajada ijro etib, o‘zbek opera san’atida ilk hajviy obrazni yaratdi. Maysaraga xos xatti-harakatlar, uddaburonlik, topqirlik, komik sa’y-harakatlarni Halima Nosirova yuksak darajada talqin qilgani mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan. Xonanda san’atidan nainki yurtimiz aholisi, Osiyo, Yevropa, Amerika qit’alarining ko‘plab mamlakatlari san’at muxlislari ham bahramand bo‘lgan.

Halima Nosirovaning o‘zbek teatr, qo‘shiqchilik, ayniqsa, opera san’ati rivojiga qo‘shgan ulkan xizmatlari yuksak baholangan, o‘z davrining eng oliy unvon va mukofotlari bilan taqdirlangan. 2000-yilda esa u kishi mustaqil O‘zbekistonning “Buyuk xizmatlari uchun” ordeniga sazovor bo‘lgan edi.

Bu ulug‘ san’atkor haqida ko‘plab tadqiqotlar yozilgan, yana yozilajak. Zero, Halima Nosirova ijodi – misli bir ummon. Ushbu san’at ummonidan hali ko‘p yillar xalqimiz, ayniqsa, yosh xonanda va opera ijrochilari bahramand bo‘ladi. Halima opaning boy ijodiy merosi yoshlar uchun mahorat maktabi vazifasini o‘tayveradi.

Buyuk shoirimiz Cho‘lponning “Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar” satrli g‘azalini entikib kuylagan Halima opaning o‘zi ham san’at osmonida Zuhro yulduzi kabi porloq, nurli edi-da. O‘ylaymanki, o‘zbek millati bor ekan, bu yulduz sira so‘nmagay, uning jilosi xalqimiz, xususan, yoshlarimiz qalbini ezgulik, ma’rifat nuri ila munavvar etib turaveradi.

Mamatqul HAZRATQULOV

TAASSUF

KAMBAG‘AL BO‘LSANG... O‘LIB KO‘R!

...Tong saharda yarim ochiq derazamdan noxush xabar bostirib kirdi – mahalla chorlovchisi (Ismi Ollabergan bo‘lgan bu bandaga “Levitan” laqabi necha yilki chippa yopishgan – sabab u mahalla ahlini to‘y-u azalarga chorlaydi. Ovozi o‘sha mashhur suxandonga o‘xshash keladi) ovoz kuchaytirgichda janozaga aytardi: “Janoza! Soat o‘n ikkiga! Arab ovulidagi usta Jabborberdi qaytish bo‘ldi!”

O‘n yillar oldin avtohalokatda olgan og‘ir jarohati tufayli to‘shakka mixlanib qolgan ustaning ikki o‘g‘li bor – harqalay tayyorgarligini ko‘rib qo‘yishgandir... Noxush xabar yoyinlanganda ko‘nglimga ushbu so‘zlar keldi darrov. Sababi, necha yilki shu elda yashab, turli urf-odatlari, marosimlarida qatnashib, ularga bosh bo‘lib yurganimdan marhumni dafn qilishning o‘zi bo‘lmasligini yaxshi bilaman.

Bandasi to‘yga necha yillar tayyorgarlik ko‘radi – kerak-ketigini hozirlaydi. Yetmay qolsa, el-yurt odamlari beradigan to‘yona bor. Undayam yetmasa, qarz ko‘taradi. “Qarz uziladi, xotin yonga qoladi” otaso‘zi behudaga to‘qilmagan...

Ammo to‘satdan boshiga musibat tushsa – birodari omonatini topshirsa-chi? Ana unda yugur-yugurni ko‘ring. O‘likni qarz evaziga dafn qilib bo‘lmaydi – axir imom marhumning dunyoviy qarzlarini yaqinlaridan biri bo‘yniga qo‘ygachgina janoza namozini o‘qiydi.

...To‘rt yil oldin – yangi yil kiradigan kuni yon qo‘shnimizning 17 yashar qizi joniga qasd qildi. Kutilmagan mudhish fojia. O‘rtaholgina – ikki qariyaning pensiyasiga ro‘zg‘or tebratayotgan oilaning bayram dasturxoni yozig‘ligicha qoldi. Ota-onasi, bobo-buvisining musibatdan karaxt ahvolga tushgani bir yoq, mayitni dafn qilish uchun ketadigan mablag‘ni topish bir yoq...

Xorazmda yer osti suvlari tuproq yuzasiga yaqinligi sabab jasadni qo‘yish uchun qabr tiklanadi. Endi o‘zingiz hisoblab ko‘ring: o‘rtacha qabrga kamida sakkiz yuz dona xom va ikki yuz dona pishgan g‘isht ketadi. Yana qabr poydevorini beton qorishma bilan quyish kerak. Ustidan qo‘yiladigan ikki bog‘lam qoraqog‘oz, kamida uch qop sement... (Hozirda qabr uchun tayyor beton taglik ishlatilyapti. Ayrim qabristonlar qoshida shunday taglik quyadigan kichik sexlar bor. Buyam falon pul).

Qabr tagiga tashlash uchun bir mashina qum, yana g‘isht urish, suvog‘i uchun bir mashina yaxshi tuproq zarur. Bularni keltirgan haydovchini, yuklab bergan ekskavatorchini rozi qilish kerak.

Qabr tiklaydigan ustaning qo‘l haqi bir qop un narxiga teng.

Taqribiy hisob-kitobda bir qabr tiklash uchun kamida uch yarim-to‘rt million so‘m pul ketadi.

Hali kafanlik topish kerak, janoza o‘qilguncha azaxonada diniy rivoyatlar o‘qib o‘tiradigan xalfa ayolni rozi qilish lozim. Bu yoqda marhumning yaqinlari janoza namozidan so‘ng so‘yish uchun qo‘y-qo‘chqor izlab qolishadi. Ma’raka dasturxoniga qo‘yiladigan qand-qurs, noz-ne’matlar ham oz-munchamas – ayollarga bo‘lak, erkaklarga bo‘lak bir necha xonalarda dasturxon yozish kerak. Hali janoza namozi o‘qilguncha xotin-qizlar zudlik bilan bo‘g‘irsoq pishirishi va ta’ziyaga kelganlar oldiga qo‘yishlari shart. Bu yoqda azador ayollar jasad ustida fig‘oni ko‘kka o‘rlab, dod-voy solishyapti, uy orqasidagi tandirga esa o‘t qalangan. Uch-to‘rt ayol non yopish bilan band...

...Bir oycha oldin yon qo‘shnimiz olamdan o‘tdi. Bir yarim yildan buyon buyrak yetishmovchiligidan azob chekar, haftada uch marta qonini gemodializ orqali tozalashardi. O‘g‘li yo‘q, to‘ng‘ich qizini uzatgan, uyida yolg‘iz bo‘y yetgan qizi, nogiron ayoli bo‘lgan marhum oilasi ehtiyojmandligi tufayli “Temir daftar”ga kiritilgan, davlat tomonidan moddiy qo‘llab kelinardi. Bu moddiy qo‘llash ro‘zg‘or qozonini qaynatishdan ortmasdi.

...Tong sahardan chopa-chop boshlandi. Hali marhum jasadi kasalxonaning jonlantirish bo‘limidan keltirilguncha amaki og‘aynilari bilan dafn uchun ketadigan narsalarni hozirladik. Qishlog‘imizdagi qurilish ashyolari do‘koni egasiga qo‘ng‘iroq qilib vaziyatni aytdik: “Hozir imkoni yo‘q... Kuyovi chetda ishlaydi, o‘sha pul jo‘natgach hisoblashamiz...” (Shu o‘rinda oqibatli xalqimizning bunday paytda kerakli narsalarni hech ikkilanmay nasiyaga berish odati borligini alohida qayd qilish kerak. Kafanlik, dasturxonga tortiladigan qand-qursni ham do‘kondorlar shundoq berib yuborishadi).

Ammo masalaning boshqa tomoni bor. Qabr uchun olingan qurilish ashyolari haqini shu kuniyoq bermasa bo‘lmaydi. Marhum qabrga qo‘yilgach farishtalar kelib uni so‘roqqa tutadi, birinchi berajak savoli dunyoviy qarzlari haqida bo‘ladi, deyishadi. Buni bilgan marhumning yaqinlari kuyovdan keladigan pulni kutmay, o‘zlari cho‘ntak kovlashga majbur bo‘lishdi...

...Bir kuni saharda kimdir derazamni qoqdi. Chiqsam, qo‘shni elatlik tanishim. Salomlashishni unutib, bevaqt kelishi sababini aytdi: “Tuppa-tuzuk yurgan otam boyagina omonatini topshirdi. Kutilmaganda... qo‘lim quruq... O‘g‘lim chetda ishlayapti. Shunga... besh-o‘n so‘m berib tursangiz. O‘g‘limga qo‘ng‘iroq qilsam, aytdiki, maoshini keyingi hafta berarkan...”

Qora tortib, umid bilan kelgan tanishimga “bandalik”, deya naqd pulim yo‘qligi uchun plastik kartamni berib yubordim...

...Xiva shahridagi bir qabriston qorovuli oldindan qabr qurib, uni marhumlar yaqiniga qimmat narxda sotayotgani, tayyor qabrni sotib olmay o‘zi tiklagan bir fuqaro dahmasini “noqonuniy” deb yiqishga harakat qilgani, bu mojaro huquq organlari tomonidan o‘rganilgani, ammo hech kimga chora ko‘rilmagani haqidagi tanqidiy maqolamga ishonarli huquqiy munosabat bildiradigan mas’ul topilmadi. Bu haqda ijtimoiy tarmoqlarda bir necha marta yoyinlangan xabarlar ham imi-jimida o‘tkazib yuborildi...

Afsuski, barcha bandaning boshida bor qismat – o‘limdek fojiani yaxshigina biznesga aylantirgan nokaslar yo‘q emas...

Yaqin-yaqinlargacha bizda “mustiyoqqa o‘tirish” degan odat bo‘lardi. Ya’ni janoza namozidan oldin marhumning yaqinlaridan biri uning bu dunyoda qazo qilgan namozlari, ro‘zalarini o‘z bo‘yniga olardi. Bu shunchaki marosim emas edi. Uy egasi bir tog‘ora bug‘doy yoki sholi ustiga qimmatbaho mato qo‘yadi. (Bug‘doy yoki sholi tog‘oradan oshib, to‘kilib turishi kerak. Go‘yo shunda gunohlari to‘kilarmish). Imom qo‘liga tig‘li buyum – bolta yoki uzun pichoqni olib, marhumning yoshini hisoblab, ayol bo‘lsa to‘qqiz, erkak bo‘lsa o‘n ikki yoshidan buyon qazo qilgan namozlari oy-kunlarini hisoblab, shularni mustiyoqqa o‘tirgan banda bo‘yniga yuklardi. Keyin tog‘oradagi bug‘doy va qimmatbaho matoni olib ketardi.

Bolalik vaqtimizda bu odatni kasb qilib olgan Samandar buva degan inson bo‘lardi. Hech kimi yo‘q bu banda qishlog‘imizdagi barcha marhumlarning diniy qarzlarini bo‘yniga olish evaziga... tirikchiligini o‘tkazardi, ya’ni o‘sha bug‘doy va matoni haq sifatida olardi. O‘sha bandaning laqabi ham “mustiyoqchi” edi.

Samandar buva olamdan o‘tgach, bu ishni hech kim zimmasiga olmadi, endi marhumning diniy qarzlari yaqinlaridan biriga yuklanadigan bo‘ldi.

Har bir banda bu dunyoda qilgan yaxshiliklariga ajr, bilib-bilmay qilgan xatolariga yarasha jazo olishi haqida imomlar ko‘p bora amr-u ma’ruf qiladilar. Birovning xato yoki kamchiligini boshqa birov o‘z bo‘yniga olishi... na mantiqqa, na dinimizga to‘g‘ri keladi.

Garchi to‘rt-besh yil oldin mahalla mas’ullari targ‘ibotlari o‘laroq bema’ni marosimni o‘tkazish taqiqlangan bo‘lsa-da, hali hamon yashirincha o‘tkazayotganlar bor.

Yaqingacha “darvana” degan odat ham bo‘lardi. Marhumning yaqinlari janoza namozi o‘qilishi arafasida bir dasta pulni qariyalarga tarqatishardi. Shu bid’at odatni o‘zlarini ko‘z-ko‘z qilish uchun o‘tkazadiganlar, “Falonchi otasi o‘lganida ellik kishining har biriga o‘n ming so‘mdan tarqatdi. Men yuz kishining har biriga ellik ming so‘mdan berdim”, deb maqtanib yurganlarni bilaman.

...Janoza o‘qildi, mayit qabristonga olib ketildi. Azador xonadon egalari endi bo‘lajak marosimlarga tayyorgarlikni boshlashadi. Ma’raka uchun boyagina so‘yilgan jonliqdan ovqat tayyorlashga kirishishadi.

Bir kundan so‘ng “uch” ma’rakasi bo‘lib o‘tadi. Ma’raka dasturxonining to‘y dasturxonidan farqi spirtli ichimliklar yo‘qligi, xolos. Keyin “yetti”si. “Qirq” ma’rakasigacha har payshanba kuni marhum o‘tgan xonadonda dasturxon yozilib, taom pishirilib, “jumalik” deb ataluvchi marosimga kelganlarga tarqatiladi.

Aynan besh “jumalik”dan so‘ng “qirq” ma’raka beriladi. Bu orada Ramazon yoki Qurbon hayitlari kelib, musibat tushgan barcha xonadonlarda “hayitoshi” ma’rakasi tongdan boshlanadi. “Hayitoshi” o‘z nomi bilan hayit oshi. Kelganlar oldiga ovqat tortilmasa bo‘lmaydi.

“Yil” ma’rakasini esa “endi u yog‘i to‘y bo‘lsin!” degan yaxshi niyatda misli to‘ydek o‘tkazishadi, ya’ni dasturxon bezaladi, albatta, bir qozon suzma palov pishiriladi...

Hukumatimizning dafn qilish xarajatlari uchun deb belgilab bergan moddiy yordami – marhumning ikki oylik maoshi yoki pensiyasini ba’zi dimog‘ini qurt bosgan manglayi qoralar “kafanlik” deb kulib ham qo‘yishadi.

...Ahmad Yassaviy hikmatlarini yod olgan onam rahmatli kimdir vafot etgani haqidagi xabarni eshitganlarida hamisha aytguvchi edilar: “Qish o‘ldirma – yoz o‘ldir, och o‘ldirma – to‘q o‘ldir!” Onam nidomat-la aytmish bu otaso‘zlar zamirida qachonlardir, kimlardir tomonidan o‘ylab topilgan, marhum xonadonini ship-shiydam qiladigan bid’atlardan norozilik bor, bezish bor.

...Turon jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiydan o‘qiymiz: “To‘y va ta’ziyaga sarf qilinaturg‘on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo‘lida sarf etsak, anqarib ovrupoviylardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar. Yo‘q, hozirgi holimizda davom etsak, din va dunyoda zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo‘lmaydir!”

Abdulla Avloniy bobomiz kuyinib yozmish: “...Imomlarimiz xaloyiqg‘a va’z va nasihat o‘rniga, to‘y va janozalarda yurub, joma kiyishni yaxshi ko‘rurlar”.

Bu so‘zlar yuz yillar oldin aytilgan. Bu yuz yilda siyosatlar o‘zgardi, tuzumlar yangilandi, kamida to‘rt-besh avlod almashdi, ammo o‘sha udumlar, keraksiz, mantiqsiz odatlar, bid’atlar hali hamon bor – yashovchan.

...Besh yillar oldin Oliy Majlis Senati qarorida to‘y marosimlarini ixchamlashtirish, ma’rakalarni tartibga solish, islom dinida yo‘q “uch”, “yetti”, “jumalik”, “yigirma”, “qirq”, “yil” kabi ma’rakalarni o‘tkazmaslik belgilab berilgandi. Xo‘sh, ijro nima bo‘ldi?

Ayni qaror chiqqanidan biror haftalar o‘tgach elatimizning eng yoshi ulug‘ insoni – Jamila momo 90 yoshida bandalikni bajo keltirdi. Imom janoza namozini o‘qigach ko‘chaboshi odatdagidek “Indinga “uch”i, keyingi haftaning falon kuni “yetti” ma’rakasi bo‘ladi”, deb e’lon qilish o‘rniga “Senatning qarori bor – hech qanday ma’raka bo‘lmaydi!” dedi. Tobutni ko‘tarib borayotgan yigitlardan biri: “Nima, biz itni ko‘tarib ketyapmizmi?” deb luqma tashladi. Bu gapga birovlar kuldi, birovlar bosh chayqadi...

Haqiqatan, Jamila momoga birorta ma’raka berilmadi. Bo‘lmasa farzandlari elning old odamlari edi.

O‘sha vaqtda Senat a’zolari viloyatlarda bo‘lib, keng jamoatchilik vakillari bilan yig‘ilishlar o‘tkazishdi, “oynayi jahon” va ommaviy axborot vositalarida qaror keng targ‘ib qilindi. Bu jarayonda aynan imomlar jonbozlik ko‘rsatishdi.

Keyin... navbatdagi janozadan so‘ng hammasi eski o‘zanga qaytdi. Eng ajablanarlisi, ko‘chaboshi bor ovozi bilan marhumning “uch” va “yetti” ma’rakalari sanasini e’lon qildi. Farqi: “Ma’rakalar soat o‘n ikkiga sovuladi”.

Bu orada aksiga olganday muqaddam bizlarda bo‘lmagan, daryo ortida o‘tkazilarmish deb eshitganimiz “ellik ikki” degan ma’raka-rusum bo‘la boshladi. O‘sha qaror bekor qilindimi yoki ijrosi vaqtincha to‘xtatildimi, deb mahalla mas’ullarining biridan so‘radim. U yelka qisdi: “Elni o‘rgangan odatidan bir qaror bilan qaytarib bo‘lmas ekan. Asta-sekinlik bilan bunga erishamiz”.

Qachon? Yana yuz yildan keyinmi?

Davlatimiz rahbari, hukumatimiz yoki qonun chiqaruvchi organlar qarorlari ijrosini ta’minlaydigan mahalla mas’ullarining parvoyi falak. Kun sayin avj olib borayotgan shu kabi marosimlarga aynan mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan el roziligi bilan saylangan ayrim ko‘chaboshilar bosh bo‘lishayotgani achinarli...

...Biz hozircha jadid bobolarimiz qayg‘ulariga hamdard bo‘lib, ularni qiynagan illatlardan voz kechish kerak deb bong uramiz va oxirida... qo‘shimcha qilamiz: “Kambag‘al bo‘lsang – o‘lma!”

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi



YOSHLAR OVOZI

O‘zbekiston – yoshlar mamlakati. Yo‘q, bu e’tirof faqatgina aholi tarkibining salmoqli qismini yoshlar tashkil etishi bilangina izohlanmaydi. Bu o‘rinda men yurtimiz yoshlarga ko‘proq e’tibor qaratib, imkon eshiklarini ochib beradigan siyosat ustuvor bo‘lgan davlat, deb ta’kidlamoqchiman. Mening taqdirim ilm-u fan, ma’rifat va ma’naviyat bilan bog‘liqligi hamda ana shu yo‘nalishdagi orzu-ixtiyorim millatparvar siyosat va izchil islohot tufayli keng qanot yozgani sabab ushbu mulohazalarimni “Jadid” gazetasi orqali hamyurtlarimga yetkazmoqchiman.

O‘zbekistonning eng katta boyligi



2018-yilda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tizimni takomillashtirish maqsadida “Umid” jamg‘armasi o‘rniga “El-yurt umidi” jamg‘armasiga asos solindi. O‘sha yili Prezidentimiz “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi tarixiy qarorni imzoladi. Unda davlat organlari va tashkilotlarining xorijdagi vatandoshlar bilan aloqa o‘rnatishida samaradorlikning yetarli emasligi; ijtimoiy, iqtisodiy, investitsiyaviy va boshqa ustuvor loyihalar va dasturlarni amalga oshirishda vatandoshlar salohiyatidan oqilona foydalanilmayotgani, xorijda ta’lim olayotgan o‘zbekistonlik yoshlar bilan ishlashga yetarli darajada e’tibor berilmayotganligi va o‘z yurtlariga qaytganlaridan keyin ularni ish bilan ta’minlash tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi kabi qator kamchiliklar sanab o‘tilgandi. Bu oqilona qaror Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi eng ilg‘or qadamlardan biri bo‘ldi, desak aslo xato bo‘lmaydi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi ham aynan shu muammolarni hal qilishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ydi. Jamg‘arma shu kungacha mingdan ziyod o‘zbek yoshlariga dunyoning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlarida bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarida o‘qishlari uchun moddiy va ma’naviy tomondan ko‘mak berdi. Ko‘pchilik talabalar yuqori saviyali konferensiyalar va tadqiqotlarda o‘z taqdimotlari bilan chiqish qilib, O‘zbekiston imijini namoyish qilishga katta hissa qo‘shdi. Shu kungacha o‘qish faoliyatini tugatgan stipendiya sohiblari o‘z sohalari bo‘yicha davlat tashkiloti va organlarida yuqori lavozimlarda faoliyat olib bormoqda. Aynan ana shu natijadorlik sabab keyingi yillarda jamg‘armaning byudjet hajmi va yoshlar qamrovi ko‘lami oldingidan bir necha barobar ortdi.

2020-yilda bo‘lib o‘tgan Yoshlar Forumida Prezidentimiz: “Men har gal siz yoshlar bilan uchrashganimda, g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman”, degan so‘zlari biz yoshlarga g‘ayrat va shijoat bag‘ishlaydi.

Barcha tengdoshlarimni yoshlar kuni bilan qutlab, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish, Vatanimiz kelajagiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishini, Uchinchi Renessansning chinakam vorisi bo‘lishini tilab qolaman.

Xurshidbek TOHIRJONOV,
“El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiati,
AQShning Kolorado universiteti talabasi

TARMOQLARDA NIMA GAP?

YAPONCHA ISSIQ-SOVUQ

yoxud yaponlarning semirmaslik siri

Assalomu alaykum, hurmatli o‘qirmanlar. Mana shu o‘g‘lim qo‘lida ushlab turgan matoh yaponchada “Suito” deyiladi. Bizning qishloqda “Termos” deyilar edi. Tushunganingizdek issiqni issiq, sovuqni sovuq ushlab turadigan matoh. Keling, bugun mana shu maqola tugaguncha shu matohni-“Issiq-sovuq” deb atab turaylik.



Xullas, ana shu “Issiq-sovuq” Yaponiyadagi bolalarga bog‘chadaligadayoq majburiy qilib qo‘yiladi. Har bitta bolada shu matoh bo‘lishi shart. Oddiy ko‘chaga o‘ynagani chiqsa ham hamma yapon bolasining qo‘lida bor.

Ertalab uydan chiqayotganda to‘ldirib berib yuborasiz, tugab qolsa, bog‘cha opalari qaytadan to‘ldirib qo‘yishadi. Natijada, bola kun bo‘yi juda ko‘p suv ichadi. Bu matohni ko‘tarib yurish odati, yaponlarda bog‘cha, maktab, universitet, hattoki ishlaydigan kap-katta odamlarda ham shakllangan. Bog‘cha, maktabdan o‘rganib katta bo‘lgan yapon ishxonasida ham o‘sha matohni ko‘tarib yuradigan, ko‘p-ko‘p suv ichadigan bo‘ladi.

Xullas, oddiy suv ichish odati Yaponiyaning har bitta burchagida sezilib turadi. Xohlagan yemakxonaga kiring, birinchi bo‘lib muz solingan suv olib keladi. Dasturxon tuzatishda ham kola, fanta, soklar emas, suvga urg‘u beriladi.

Bu odatni bizda ham shakllantirish kerakmi deyman-da. Bizda oddiy suv ichish uncha yaxshi shakllanmagan. Xohlagan birorta bolachaga nima olib beray desangiz, “Kola”, “Pepsi”, “Sprayt” deydi. Yaponning bolasi esa “Suv” deydi.

Ba’zida chanqab ketib, nimadir olay desam, o‘g‘lim: “Suv oling” deb tayinlaydi. “Sen Yaponiyada tug‘ilgandirsan, men O‘zbekistonda tug‘ilganman” degim keladi. Pul sarflagandan keyin, qandaydir suv olgim kelmaydi. Albatta, nimadir zararli ichimlik olishim shart.

Siz ham oshxonaga kirganingizda, nima ichimlik buyurtma qilishingizni bir eslab ko‘ring...))

Xulosai kalom, suv ichish kerakligini men aytmasam ham hamma biladi. Ammo, madaniyat sifatida shakllanishi uchun bolalikdan, bog‘chalarimizdan boshlash keragov. Balkim, shunda yaponlardek uzoqroq yashab, qand kasalligi, semizlik, yurak kasalliklari kabi ko‘p kasalliklar kamayarmidi...

Hurmatli ayollar, postni o‘qishingiz bilanoq, bolangizning sumkasiga “Issiq-sovuq” idishidan solib qo‘ying. Eringizni esa issiq-sovuq qilib qo‘ying va laykni issiq-issig‘idan bosib keting.

Bahodir ISKANDAROV
Facebook

ULAR GERMANIYADA O‘QIGAN EDI



Bashim Solih qismati

Turkiston jadidlik harakati qamrov davri qisqa, ammo mazmuniga ko‘ra juda keng ko‘lamli hodisadir. Uni yaqin tarixda chegaralari o‘zaro uyg‘un bo‘lgan qo‘shni qardosh millatlar o‘tmishidagi shu davr bilan qo‘shib o‘rganish yaxshi natijalarga olib kelishi, hodisani har jihatdan teran anglashga yordam berishi tabiiy. Topilgan yangi ma’lumotlar yopiq sahifalarni ochadi, mujmalliklarga aniqlik kiritadi.

Joriy yilning may oyida Ashxobod shahrida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda qatnashdim. Qozoq, ozarbayjon, turk olimlari bilan tanishib, ular bilan jadidlar mavzusida gaplashdik. Turkman jadidlari hayoti va ijodi bilan shug‘ullanayotgan olimlar ham gurungimizga qo‘shildi. Tan olish kerak, turkmanistonlik jadidlarning hayot yo‘li, faoliyati xususida bizda juda kam ma’lumot bor. Biroq jadidlik harakati, yangi maktab va matbuotning, teatr va yangi adabiyotning paydo bo‘lishi kabi ijtimoiy-madaniy hodisalar turkman millati ma’naviy-ma’rifiy hayotini ham chetlab o‘tgan emas. Shu xususda fikrlashar ekanmiz, iste’dodli shoir, turkman va o‘zbek adabiyotining bilimdoni O‘razmurod Murodov birdan sergak tortdi. “Germaniyaga yuborilgan talabalardan biri xususida o‘qiganim bor, og‘a. Men bir go‘rayin-da”, dedi jonlanib. Yangi mujdadan quvondim.

Oradan hech qancha vaqt o‘tmasdan u taniqli turkman etimolog olimi Sultonsha Ataniyozovning “Yo‘lga eltgan yo‘laklar” asaridan nusxa yubordi. Kitobning “Ellik yildan keyingi uchrashuv” bo‘limi men uchun juda zarur bo‘lib chiqdi. Bu xotira-esseda buxorolik talabalar bilan birga Germaniyada o‘qishga yuborilgan chorjo‘ylik Bashim Solih qismatidan so‘z ochilgan edi. Jadidlar borasida barcha biladigan gapni usluban o‘zgartirib, yangilik o‘laroq qayta takrorlash tobora urfga kirayotgan bugungi kunda ayni “yuqumli kasallik”dan saqlanish uchun darrov zahmatkash jadidshunos Sherali Turdiyevning ikki bor nashr etilgan “Ular Germaniyada o‘qigan edilar” nomli qimmatli kitobiga nazar tashladim. Biroq unda xorijda o‘qigan bir qancha talabalarning faoliyati, familiyalari qatorida Bashim Solih uchramadi. Yana bir kitob – tarixchi Bahrom Irzayevning bundan ikki yil oldin “Germaniyada ta’lim olgan Turkiston yoshlari” asarini varaqlash zarurati tug‘ildi. Darhaqiqat, bunda nisbatan yosh o‘quvchilarning o‘ndan ko‘prog‘i, jumladan, Usmon Omonov, Hamro Abdullayev, Ne’mat Narzulla, Rahmatjon Avazjonov kabi Germaniyaga o‘qishga borganlar haqida ma’lumotlar berilgan. Ne’mat Narzullaga tegishli sahifalarda Bashim Solih ismi ham uchradi. Uning hamyurtlari bilan “1926-yili 31-may kuni Zaraudan Berlinga yetib kelgani” aytiladi. Boshqa ma’lumot yo‘q.

Bashim Solih qismati bilan qiziqib, o‘zim jamlagan manbalarga, Berlin arxividan olganim – Germaniyaga borib o‘qigan talabalar ro‘yxatiga qaradim. Bashim Solihni topdim. Buxoro Xalq Respublikasi tomonidan 1922-yil sentyabrida Germaniyaga yuborilganida Bashim Solih 16 yoshda edi. Ko‘pchilik hamsaboqlari kabi u ham Kyoslin shahridagi oilalardan biriga joylashadi... Buxorodan borgan talabalarga rahbar bo‘lgan tatar ziyolisi Olimjon Idrisiyning germaniyalik ta’lim mas’ullariga yozgan xatida shunday ma’lumotlar bor. 1925-yil 7-avgust kuni Olimjon Idrisiy Germaniyaning Kyoslin shahrida o‘qiyotgan o‘quvchilar o‘quv yurti direktori doktor Tominskiyga murojaat qiladi. Xat talabalarning o‘z vatanlariga qaytarilishiga doir bo‘lib, Olimjon Idrisiy unga ikkita hujjat ilova qiladi. Ilova qilingan birinchi hujjat 1925-yil 30-iyul sanasiga tegishli bo‘lib, 39 talabaning o‘z yurtiga qaytarilishiga oid edi. Olib ketuvchi mas’ul sifatida Grigoriy Meyerson belgilangani va qaytarib olib ketish vaqti aytiladi. Uning ostiga Yakubovich degan kimsa imzo qo‘yadi. Ilova qilingan ikkinchi hujjat ham 1925-yil 30-iyul sanasiga tegishli. Unda Germaniyada o‘qiyotgan (Kyoslindan 18 nafar o‘quvchi) 39 nafar o‘quvchi va talabalar ro‘yxati keltiriladi. Ro‘yxatdagi talabalar har qanday vaziyatda bo‘lmasin, 20-avgust kuni ketishga hozir bo‘lishlari ta’kidlanadi. Ostiga Grigoriy Meyerson imzo qo‘yadi (15068 raqamli arxiv manbasi).

Talabalarni Turkistonga qaytarish uchun borgan Grigoriy Meyerson tuzgan ro‘yxatning oltinchi o‘rinida Bashim Solih nomi turibdi. Biroq bu ro‘yxat, bu mitti ma’lumot Bashim Solih qismati haqida aslida tugal tasavvur bermaydi. Yuqorida keltirilgan rasmiy arxiv hujjatida O‘rta Osiyo universiteti rektori sifatida tavsiflangan Grigoriy Meyerson sovet hukumatining rasmiy topshirig‘iga ko‘ra “bolsheviklarga qarshi kayfiyatlari kuchayib ketgani uchun” talabalarning ko‘pchiligini majburan o‘z uylariga qaytarishi lozim edi. Ro‘yxatlar tuziladi, munozaralar bo‘ladi, muzokaralar olib boriladi. Talabalar uylariga qaytish rejasidan rizo bo‘lishmaydi. Sherali Turdiyevning yozishicha: “Bunga javoban Berlin universiteti falsafa fakulteti talabasi Ahmad Shukriy norozilik namoyishi sifatida unga (Meyersonga – B.K.) qarshi havoga o‘q uzadi. O‘q ovozidan qo‘rqqan Meyerson shoshilinch ravishda Moskvaga qaytib, xorijda o‘qiyotgan talabalarning burjuaziya g‘oyalari ta’sirida sovetlarga qarshi ruhda tarbiya topayotganligi haqida soxta chaquvnomalar yozadi” (Sh.Turdiyev. “Ular Germaniyada o‘qigan edilar”. Toshkent. 2006. 17-bet). To‘g‘risi, hukmron sovet hukumati topshirig‘i o‘z vaqtida bajarilgan, ba’zi talabalar majburan yurtiga qaytarilgani ham bor gap. Ammo ulardan ayrimlari sovet iskanjasiga tushmaslik, erkini kishanga solmaslik uchun hayot yo‘lini xorij bilan bog‘lashga majbur bo‘lishdi. Ko‘pchiligi iziga qaytmasdan ta’lim-tahsillarini oxiriga yetkazish yo‘llarini izlashdi va Germaniyadagi o‘qishlarini qat’iyat bilan davom ettirdi.

Fikrimcha, ta’limda davom etgan talabalar qatorida turkman millatiga mansub Bashim Solih ham bor edi. Shunga ko‘ra S.Ataniyozovning “Ellik yildan keyingi uchrashuv” xotira-essedagi ma’lumotlar Bashim Solihga oid tasavvurlar kengayishiga yordam beradi. Bashim Solih barcha Germaniyaga borgan talabalar qatorida avvaliga nemislarning oilasida bir yil yashaydi. Yevropaga xos ma’naviy muhitni, nemis tilini, nemislarning urf-odatlarini qaysidir ma’noda o‘rganadi. Keyin Kyoslindagi gimnaziyada ta’lim oladi. Gimnaziyani bitirgandan so‘ng Berlin universitetining Shtutgart shahridagi filiali bo‘lgan Oliy qishloq xo‘jalik institutida zootexnik ixtisosligi bo‘yicha o‘qiydi. Oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘lgach, qasamyodiga ko‘ra “asl millat va vatanning sof istiqloli uchun jonfido”lik uchun Ashxobodga qaytadi.

Shubhasiz, Germaniyaga yuborilgan talabalarning barchasi ezgu niyatli edi. Ularni xorijga o‘qishga yuborayotgan jadid ziyolilari Samarqanddagi Amir Temur maqbarasi qoshida qasamyodli va’dasini ham olishadi. Ular o‘qib, bilim olib, ilg‘or texnikani egallab, ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo‘lib, o‘z Vataniga qaytishlari va shu el-yurt ravnaqi uchun chin dildan xizmat qilishlari lozim edi. Davrning qaltis tomon yuz burishi, ijtimoiy-siyosiy muhit o‘zgarishlari, zamon taloto‘plari bu va’daning ijrosi uchun tugal imkon bermadi. Biroq Bashim Solih va’daga ko‘ra yurtiga qaytadi. Yetti yil Ashxobod shahrida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha turli vazifalarda ishlaydi. Bir muddat Turkmanistonning qishloq xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari kabi mas’ul vazifani bajaradi.

Biroq Bashim Solih manglayiga ham 1937-yilning bo‘hroni, qatag‘oni imzosi chekilgan edi. Uni sovet korchalonlari millatchilikda ayblab, 20-30-yillardagi barcha ilg‘or ziyolilar, Germaniyada birga o‘qigan bo‘ydoshlari qatorida hibsga olishadi. Aybsiz aybdor Bashim Solih 20 yillik umrini Shimoliy Qozog‘istonning Qarag‘anda o‘lkasida surgunda o‘tkazadi. Bashim Solih manfur sovetlarning hukmdori Stalin o‘lganidan keyin 1957-yilda o‘z yurtiga qaytadi. Bir necha yil ishsiz yuradi. Ish topishi ham qiziq bo‘ladi. Bu xususda Sultonsha Ataniyozov shunday yozadi: “Bir kuni o‘g‘li Ozod va qizi Sayligo‘zal bilan kino zalida o‘tirgan Bashim shunday ortidagi qatorda ikki rus ayolining nemischa gaplashayotganini eshitadi. Ayrim so‘zlarni noto‘g‘ri aytayotganlari uchun ularning gapiga qo‘shiladi. Bu ayollardan biri universitetning chet tillar fakulteti dekani M.V.Kondrateva, ikkinchisi ham shu yerda nemis tili kafedrasining mudiri bo‘lib ishlar ekan. Ular “toza nemis” bilan uchrashib qolishganiga quvonib, uni ishga chaqirishadi. Ammo Bashim faqatgina chorvachilik bo‘yicha ishlamoqchi bo‘lganini aytgandan keyin ular mansabdor ishlardagi sobiq talabalarining yordami bilan uning Chorvachilik va veterenariya ilmiy tekshirish institutiga ishga joylashishiga yordam berishadi”.


Ko‘p yil o‘z sohasi bo‘yicha shu institutda ishlab, turkmanlarning ahaltaka otlari nasli bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradi va izlanishlari mahsuli sifatida “Ahaltaka otlarining nasli” (“Ахалтекинская порода лошадей”) degan kitobini nashr ettiradi. Ora-orada Bashim Solih xotiralarga berilganida 30-yillardagi Turkmanistonning taniqli davlat arbobi Qayg‘isiz Otaboyevning “Moskvaga borib aspiranturada tahsil olib kelgin”, degan taklifini qabul qilganimda “boshimga bu qatag‘on kunlari tushmagan bo‘larmidi”, deb armon qilar ekan. Taqdirni tabdil qilib bo‘lmaydi. Ikkinchi bir gap. Chorjo‘y pedtexnikumida birga o‘qigan kursdoshi Pirguli Rahmon 70-yillarda Bashim Solihni izlab Ashxobodga boradi. Uylariga yaqinlashganda ko‘chada so‘zlashib turgan uch kishi orasidan hech ikkilanmay Bashim Solihni taniydi. Qancha o‘z ismini eslatmasin, Bashim Solih “Pirguli Rahmon” ismini sekin shivirlab takrorlaydi va eslay olmaganini aytadi. Shunda sobiq saboqdoshi yoshlikdagi ayrim tafsilotlar, jumladan, bir kechasi qishloqqa qaytayotganlarida chiyabo‘rilardan saqlanish uchun bir tunni o‘rik daraxti ustida o‘tkazganlarini yodga oladi. Shunda Bashim Solih beixtiyor o‘rnidan qalqib turadi va ikki saboqdosh quchoqlashib qayta ko‘rishadi. Unsiz yig‘lashadi. Bu voqeaga guvoh bo‘lib, ular suhbatini jimgina tinglab o‘tirgan Sultonsha Ataniyozov oradan o‘tgan vaqtni hisoblaydi: “50 yil 2 oy 14 kun”... Chaquvlardan, tuhmatlardan ko‘ngli zada bo‘lgan Bashim Solih bir muddat sinab, atay o‘z saboqdoshini tanimaslikka olgan bo‘lsa kerak, degan fikr xayolimga keldi. Chunki surgun va qatag‘on azoblarini tortgan bashimsolihlar juda ehtiyotkor, tiliga erk beravermaydigan, to‘g‘ri kelgan odam bilan ochilishib gaplashavermaydigan, xalq ta’biri bilan aytganda, “qatiqni ham puflab ichadigan” insonlar edi. Stalinizm qamoq, surgunlaridan keyin Bashim Solihga o‘xshab ehtiyot yuzasidan kamgap bo‘lib qolgan o‘zbek ziyolilari ham ko‘p edi...

Bashim Solihning Germaniyada olgan ta’limi, chet tillarini puxta bilishi turkmanlarning chorvachilik, nasldor ot zotlarini urchitish, zotdor turkman otlari tarixini tadqiq qilish kabi ishlarida juda qo‘l keladi. Bashim Solih 1978-yilda vafot etadi. Bugun bu sohadagi turkman olimlari uni o‘zlariga ustoz sanaydi.

Gapim tuganchida, to‘g‘risi, Germaniyaga borib o‘qigan talabalardan biri – Bashim Solih xususida xotira-esse yozgan Sultonsha Ataniyozov va uning yozganlarini taqdim etgan O‘razmurod Murodov do‘stimizga rahmat aytishga burchliman. O‘z vaqtida Germaniyada ta’lim olgan o‘quvchi va talabalar taqdiri bilan bog‘liq sahifalarni aniqlashtirib, turli fe’l-atvorga ega bu fojiaviy qismat egalari haqidagi tarixiy haqiqatni buzmay yozish zarurati yo‘q emas. Zero, bu ham tarixiy bir hodisa, muhtasham tarix kitobining jiddiy o‘qilishi lozim bo‘lgan sahifalaridan biridir.

Gapim nisbatan qisqa bo‘ldi. Holbuki, bu inson boshiga tushgan fojialar, hibs davri, savol-javoblar oqimiga doir hujjatlar Turkmanistonning maxsus arxivlarida hali-hanuz saqlanayotgan bo‘lishi tabiiy. Demoqchimanki, 30-yillardagi qatag‘on bo‘hroni barcha millatlar boshiga yog‘ilgan ulkan bir ofat edi. Bu balo va ofatning zahmi-izosi hali shu kunga dovur odamlar qalbini iztirobga solib keladi. Erkinlik, inson hurligining naqadar bebaho ne’mat ekanini anglash uchun Bashim Solih singari taqdir egalarining ibratga to‘la murakkab hayot yo‘liga bir qur nazar solish foydalidir.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor



Ildirgi: *Xotira-essedagi ma’lumotga ko‘ra Bashim Solih o‘g‘liga “Ozod” ismini qo‘ygan ekan. Tabiiyki, bu ism yurt ozodligining ramziy ifodasidir. Unga safdosh bo‘lgan jadid ziyolilari o‘z vaqtida farzandlariga Erkli, Najot, Hurriyat kabi ismlar qo‘yganidan xabarim bor. Abdulla Qodiriy esa 1926-yilgi hibs mahali dunyoga kelgan va o‘sha ofatdan qutulguniga qadar ismsiz otasini kutib yotgan o‘g‘liga “Mas’ud” (saodatli ma’nosida) degan ism qo‘ygan edi. Ismda hikmat, ma’no va xotira bo‘ladi.*

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Ernazarov Abdurahim – 1888-yili Bulung‘ur tumani Tunotar qishlog‘ida tug‘ilgan. “Sho‘royi islom” va “Milliy ittihod” tashkilotlarining sobiq a’zosi bo‘lgan. Qamoqqa olingan paytda xo‘jalik mudiri bo‘lgan. Doimiy ravishda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. O‘zSSR JKning 66-moddasi 1-bandi bilan ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 2-dekabrdan hisoblangan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Alimov Sayfulla – 1903-yili Shahrixon tumani Beglik qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Qamoqqa olingan paytda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aksilinqilobchi guruhga rahbarlik qilgan. Doimiy ravishda hokimiyatga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Sharopov Salohiddin – 1899-yili Shahrisabz shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan paytda artel idorasi raisi o‘rinbosari bo‘lgan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. O‘zSSR JKning 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 25-oktyabrdan hisoblangan.

Jalilov Dozimxon – 1875-yili Bulung‘ur tumani Oxtan quyonchi qishlog‘ida tug‘ilgan. 1934-yili davlat majburiyatini bajarmagani uchun 6 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Doimiy ravishda aksilinqilobiy mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda, mish-mishlar tarqatganlikda ayblanib, O‘zSSR JKning 66-moddasi, 1-bandi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 1-dekabrdan hisoblangan.

Parpiboyev Jumaboy – 1893-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Kommunistik universitetda o‘qigan. “Ittihod va taraqqiy” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. 1920-yil boshlarida Toshkentdagi “Milliy ittihod” tashkilotiga jalb qilingan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Eshonxo‘jayev Usmonxon – 1899-yil 14-oktyabrda Andijon shahrida tug‘ilgan. 1914–1917-yillarda Andijondagi yashirin “Ittihod va taraqqiy” tashkilotining faol a’zosi bo‘lgan. Turkiston kompartiya markaziy komiteti matbuot sektori mudiri bo‘lgan. 1937-yil 15-avgustda Qozon shahrida hibsga olingan. 1938-yil 4-oktyabrda Toshkentda otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kuni ijro etilgan.

Dadaboyev Bo‘taboy Dadaboyevich – 1888-yili Namangan viloyatining Chust shahrida tug‘ilgan. “Ittihod va taraqqiy” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. 1938-yil 5-oktyabrda otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kuni ijro etilgan.

Yunusov G‘ozi Olim – 1893-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1918-yili “Turk o‘chog‘i” tashkilotini tuzgan. Til va adabiyot institutida ilmiy xodim (1934–1937) bo‘lib ishlagan. 1937-yil 3-iyunda Toshkentda hibsga olingan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig‘ilishida Yunusov G‘ozi Olim otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kuni ijro etilgan.


Rahimiy Shokirjon – 1893-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1921-yildan Toshkent Eski shahar siyosiy maorif mudiri va maorif inspektori bo‘lib ishlagan. 1923-yili “Nashri maorif” jamiyatini tashkil etishda faol qatnashgan. 1912-yildan boshlab usuli jadid maktablari va turli o‘quv yurtlari uchun qo‘llanmalarni nashr etgan. 1930-1931-yillarda “Milliy ittihod”chilar ustidan bo‘lib o‘tgan suddan keyin Toshkent maorif tizimidagi muassasalarda ishlagan. 1937-yil 5-avgustda “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olingan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig‘ilishida Rahimiy Shokirjon otuvga hukm etilgan. Hukm o‘sha kuni ijro qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

GURUNG

ODAMIYLIK RUTBASI



Maqtov va hamd-u sano faqat Yaratgan zotga yarashadi. Burungilar aytganidek, inson xatokor va nuqsonlidir. Ammo odam bolasining botinida shunday bir javhar – qalb borki, go‘zal tuyg‘ular va hayratlar makoni o‘laroq u hamisha inson zotining mohiyatiga zeb berib, maqomini yuksaklarga ko‘tarib turadi. O‘zbekiston va Tojikiston xalq artisti Og‘abek Sobirov bilan bugungi suhbatimiz ham aynan odamiylik rutbasi-yu san’atkor qalbining iztiroblari, yo‘qotganlari-yu shu yo‘qotishlar evaziga topganlari haqidadir.

– Og‘abek aka, biz yashab turgan dunyo naqadar ko‘hna. Odamzodning bu qadim karvoni naqadar uzoq asrlar qa’ridan kelyapti. Bugun sizning qo‘lingizda sayrayotgan “quvyog‘och”ni, eng avval, ibtidoda kim chalgan-u sizgacha kimlarning qo‘lida yig‘lamagan va kimlarga zavq ulashmagan deysiz. Ortga bir nazar tashlab, kimlarni o‘zingizga chinakam ustoz deb bilasiz va o‘zingizni kimdan ko‘proq qarzdor deb hisoblaysiz?

– Qalbimda san’atga bo‘lgan ilk mehr bolalik chog‘imda uyg‘ongan. To‘g‘risi, u vaqtlarda hozir siz aytgan tuyg‘ularni his qilish, anglashga juda yoshlik qilganman. Aniq bilganim shuki, bobokalonlarimiz Xiva xoni saroyida cholg‘uchi bo‘lishgan. San’atkorlik – ajdodlarimizdan qolgan bobomeros kasb. Ilk bor qo‘limga tor olar ekanman, otamiz Karimboy Sobirov va onamiz Bekposhsha Jumaniyozova ich-ichlaridan bu qiziqishimni ma’qullab, rag‘batlantirishgan. Kerak bo‘lganda, duolari bilan menga qanot bo‘lganlar.

Otam qirq yil temiryo‘l sohasida ishlab, biz – sakkiz farzandni hech nimadan kam qilmay ulg‘aytirdi. Onajonim esa padari buzrukvorimning borini oshirib, yo‘g‘ini yashirib, butun umrini farzand tarbiyasiga bag‘ishlagan. Ikkovi ham san’atga ipsiz bog‘langan edi. Ulardagi sozga chuqur mehr va mubtalolikni doim his qilib turganmiz.

To‘ng‘ich akam Maqsudbek Sobirovni birinchi ustozim deb hisoblayman. Maktabda musiqa o‘qituvchimiz Sultonboy Sobirov, bilim yurtida Bobojon Sapayev menga ustozlik qilgan. Shogirdim deb menga duo bergan, katta sahnaga olib chiqqan ustozim esa O‘zbekiston, Turkmaniston hamda Qoraqalpog‘iston xalq artisti Ortiq Otajonov bo‘ladi. Qolaversa, mendan oldin san’atga kirib kelgan va bu yo‘lda ter to‘kkan barcha ulug‘larni o‘zimga ma’naviy ustoz deb bilaman. Ularning ruhi oldida o‘zimni hamisha qarzdor hisoblayman.

– Sizningcha, vatanparvarlik nima? Kuy-qo‘shiqlar orqali bu tuyg‘uni uyg‘otish mumkinmi?

– Vatan va vatanparvarlik – juda go‘zal mavzu. Masalan, Ozarbayjonning Shusha shahrida o‘tkaziladigan “Xari bulbuli” madaniyat va san’at festivalida qardoshlarimiz tomonidan kuylanadigan Vatan haqidagi qo‘shiqlarni tinglab, odamning ko‘ziga yosh keladi, ko‘ksi mehr, iftixorga to‘ladi. “Ulug‘imsan, Vatanim”, “Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston!” singari o‘zbekona qo‘shiqlarni tinglaganda ham xuddi shunday kechinmalarni tuyasiz. Bunga sabab ushbu qo‘shiqlar botinidagi samimiyatdir.



– To‘g‘ri, ammo tanganing ikkinchi tomoni bor. Bu muqaddas mavzuni siyqalantirib, vatanparvarlik g‘oyasini o‘z manfaati yo‘lida dastak qilayotgan ayrim san’atkorlarga nisbatan yurtdoshlarimizda e’tiroz uyg‘onayotgani ham bor gap...

– Inkor qilmayman. Ammo men uchun vatanparvarlik bu – otam, onam va bobolarim yotgan muqaddas tuproqni chinakamiga sajdagoh deb bilishdir. Ustozimiz Komiljon Otaniyozov kuylaganidek: “O‘zga yurtning bog‘i bilan bog‘chasi o‘z yurtimning yantog‘icha ko‘rinmas”. Negadir shu qo‘shiqni eshitsam yo ustozga ergashib kuylasam, doim ko‘zimda yosh aylanadi.

– Aytgancha, siz Komiljon Otaniyozov “Suvora”larini ko‘p kuylagansiz. Kuylamoqdasiz. Buyuk hofizning ashaddiy muxlislari tomonidan tanqid qilinishdan qo‘rqmaysizmi? Umuman, tanqidga munosabatingiz qanday?

– O‘rinli bo‘lsa, e’tirozim yo‘q, samimiy qabul qilaman. Ammo o‘rinli tanqid va shaxsiy xusumat – boshqa-boshqa narsa. Ular orasidagi nozik farqni aniqlab olish kerak. Tanqid bahona shaxsni atay obro‘sizlantirish maqsad qilingan bo‘lsa, bu – endi yomon, judayam yomon. Fe’limdagi og‘ir-vazminlik sabab men bu borada besabrlik qilmaganman. Biz tomonlarda: “Seni it tishlasa, sen ham itni tishlaysanmi?” degan bir aytim bor. Ortiqcha gap-so‘z, shov-shuvlarga aralashishni to‘g‘ri deb bilmayman. Men uchun muhimi – ijod qilish, yangi qo‘shiqlar yaratish va chinakamiga ijod zavqini tuyishdir.

– Joriy yilning aprel oyida Ozodbek Nazarbekov, Yulduz Usmonova, Munojat Yo‘lchiyeva, Yodgor Sa’diyevlar qatori siz ham “Tojikiston xalq artisti” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldingiz. Shu o‘rinda an’anaviy bir savol, o‘sha lahzada qalbingizdan nimalar kechdi? Bugun qanday qo‘shiqlar yaratyapsiz?

– O‘sha lahzadan to hozirgacha bir narsa – ikki xalq ishonchiga munosib bo‘lishim shartligi haqida o‘ylayman. Bu yuksak xalqaro e’tibor va e’tirof zamirida Prezidentimizning biz san’atkorlarga bo‘lgan mislsiz mehri va g‘amxo‘rligini ko‘rish mumkin. Keyingi yillarda qo‘shni davlatlar bilan yaqin do‘stlik munosabatlari tiklandi, uzoq vaqt taqa-taq yopilgan eshiklar ochilib,



uzilgan rishtalar qayta bog‘landi. Bu borada xalq diplomatiyasining bir shoxobchasi bo‘lgan san’at omilidan ham oqilona foydalanilayotir. Mana shu jihat biz san’atkorlarning ham nufuzini oshirib, o‘z fuqarolik burchiga yangicha ko‘z bilan qarashga undamoqda. Qisqa qilib aytganda, Yurtboshimizning bag‘rikeng siyosati tufayli biz qo‘shni davlatlarda ham tanilish asnosida o‘zimizning milliy san’atimizni targ‘ib qilish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Biroz balandparvozdek eshitilsa-da, bugungi dorilomon kunlar sharofati bo‘lmasa, bu imkonlar qayda edi? Endi nafaqat o‘zbek, balki tojik san’at shinavandalari uchun ham ijod qilish mas’uliyati zimmamizda. Ayni paytda har ikkala qondosh va jondosh millatga ehtirom tariqasida o‘zbek va tojik tilida shir-u shakar qo‘shiq tayyorlayapmiz. Yaqin kunlarda ushbu qo‘shiqning taqdimoti bo‘lib o‘tadi.

– Sobirovlar sulolasidan bugun ham yangi nomlar chiqyaptimi? Shu haqidayam muxlislaringizni xabardor qilsangiz.

– Ukam Anvar Sobirov necha yildirki, qo‘shiqchilik va aktyorlik sohasida barakali ijod qilmoqda. O‘rtancha farzandim Ibrohim ham Yunus Rajabiy nomidagi maqom institutida tahsil olayotir.

Xabaringiz bor, maqom san’atiga shaxsan Prezident darajasida e’tibor qaratilyapti. Chunki maqom – bu tarix, maqom – bu o‘zligimiz. Ayni kunlarda so‘lim Zomin tog‘lari bag‘rida II Xalqaro maqom festivali bo‘lib o‘tmoqda. Davlat rahbarining festival qatnashchilariga yo‘llagan tabrigidagi yuksak ruh biz san’atkorlarga tolmas qanot bag‘ishlaydi.

– So‘nggi savol: eng katta boyligingiz nima?

– Eng katta boyligim – iymonim, undan keyin san’at va san’atga bo‘lgan muhabbatimdir.

Sanobar MEHMON suhbatlashdi.

MUJDA

Joriy yilning 24-25-iyun kunlari Qirg‘iziston poytaxti Bishkek shahrida Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari 950 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Konferensiyada YUNESKO, Turkiy Akademiya, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa qator xalqaro tashkilotlarning rahbarlari va vakillari ishtirok etdi.



“UMUMTURKIY LUG‘AT” YARATILADI

Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev “Devoni lug‘otit turk” asarini ilmiy doiralar va jamoatchilik tomonidan chuqur o‘rganish lozimligini ta’kidlab, uning zamonaviy turkiy tillarning rivojlanishidagi alohida ahamiyatini qayd etdi. Shuningdek, “Devoni lug‘otit turk” asosida “Umumturkiy lug‘at” yaratishni taklif qildi.

Ma’lumki, “Devoni lug‘otit turk” asari turkiy xalqlarning tili, tarixi, geografiyasi va madaniyatiga oid ilk yozma ensiklopediya hisoblanadi. Devon o‘z davridagi turkiy qabilalarning lug‘atini izohlab, ular orasidagi farqlarni ko‘rsatib bergan. Ayniqsa, ushbu asar turkiy xalqlarning shakllanishi va taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, bugun tilimiz lug‘ati ajnabiy so‘zlar bilan boyib, o‘ziga xosligi, o‘z ifoda yo‘sinidan begonalashayotgan bir paytda “Devoni lug‘otit turk”ka tayanib chetdan o‘zlashayotgan so‘zlarning muqobilini topish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Mahliyo XURRAMOVA

“Jadid” gazetasi jamoasi va muassislari “Tafakkur” jurnali bosh muharriri, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Erkin A’zamga volidayi muhtaramasi

Ruxsatoy momo A’ZAMOVAning

vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik izhor qiladi.

YANGI LUG‘AT

ATAMALAR SHARHI




DEDLAYN – o‘zaro kelishuvga asosan, ish beruvchi tomonidan belgilangan vazifani bajarish va topshirish uchun qo‘yilgan so‘nggi muddat.



DRON – uchuvchisiz uchadigan uskuna. Uni masofadan turib boshqarish va u orqali turli vazifalarni bajarish mumkin. Kuzatuv ishlarini olib borish, tasvirga olish kabi ishlar shular jumlasidandir.

INTERFEYS – dasturlash hamda texnik vositalar majmuyidir. U elektron hisoblash mashinalarining operativ va tashqi xotira qurilmasidagi bir qancha funksional qurilmalarning o‘zaro ta’sirini ta’minlaydi.



KOGNITIV – anglash, tushunish kabi ma’nolarni o‘zida jamlagan ushbu so‘z bilish faoliyati – insonning ro‘y berayotgan jarayonni bevosita sezishi, his etishi bilan bog‘liq hodisa ekanini ko‘rsatuvchi hamda shuni anglatuvchi ifoda sifatida ishlatiladi.



Gazetxonlarimizda mazkur so‘zlarning o‘zbekcha muqobiliga taklif bo‘lsa, telegram orqali **@jadidgamurojaat_bot** manziliga yuborishlarini so‘raymiz.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Dilmurod Do‘stbekov

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6024
Lotin yozuvidagi adadi – 11916
Media kuzatuvchilar – 12353
Buyurtma: G – 640.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 03:20
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz